

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Statistika agentligining
2024- yil 31- maydagi
126- son buyrug‘iga
ILOVA

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo‘yicha uslubiy nizom

Mazkur uslubiy nizom xizmatlar sohasidagi statistika hisobini yanada takomillashtirish hamda yangi xizmat turlarini hisobga olgan holda xizmatlar sohasi bozorining holati to‘g‘risidagi statistika ma’lumotlarini shakllantirish tartibini belgilaydi.

Uslubiy nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024- yil 4- martdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-114-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, shuningdek, “Statistik ma’lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli” (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asosida ishlab chiqilgan.

Ushbu uslubiy nizomning maqsadi xizmatlar sohasi bo‘yicha statistik ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirishda xalqaro darajada taqqoslashni ta’minlashdan iborat.

1- bob. Umumiy qoidalar

1. Ma’lumotlarni birlashtirish, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko‘rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlashni yakunlash jarayonlari GSBPM “Ma’lumotlarni qayta ishlash”ning V bosqichi doirasida shakllanadi.

2. Ushbu uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va ta’riflar qo‘llaniladi:

Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi (keyingi o‘rinlarda – xizmatlar hajmi) xizmatlar ko‘rsatishga ixtisoslashgan va xizmat ko‘rsatish asosiy faoliyat turi hisoblanmaydigan barcha ko‘rsatuvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari qiymatidir.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining fizik hajmi indeksi (keyingi o'rinlarda – FHI deb yuritiladi) joriy davrda xizmatlar hajmining solishtirma narxlarda bazis davriga nisbatan o'zgarishi (dinamikasi)ni tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir. Ushbu indeks narx omili ta'sirini hisobga olmaganda, faqat uning fizik hajmi o'zgarishi natijasida xizmatlar hajmi qanchalik ko'paygani (kamayganligi)ni ko'rsatadi.

Bazis yili – taqqoslash uchun asos sifatida olingan yil.

Deflyatorlash – amaldagi narxlarda hisoblangan iqtisodiy ko'rsatkichlarni taqqoslama doimiy narxlarga o'tkazish usuli.

Deflyator – amaldagi narxlarda hisoblangan iqtisodiy parametrlarni doimiy (bazis) narxlarga aylantirish koeffitsiyenti.

Diskret chorak bu o'sib boruvchi qiymatga ega bo'lmagan, uch oydan iborat bo'lgan “sof” chorakdir (masalan, I chorak, II chorak, III chorak, IV chorak). I chorak yanvar-mart oylarini, II chorak aprel-iyun oylarini, III chorak iyul-sentabr oylarini, IV chorak esa oktabr-dekabr oylarini ifodalaydi. O'sib boruvchi qiymatga ega bo'lgan yanvar-iyun, yanvar-sentabr, yanvar-dekabr davrlari diskret choraklar hisoblanmaydi.

Mavsumiy tartibga solish – muntazam bo'lgan hamda mavsumiy va kalendar omillar bilan bog'liq bo'lgan effektlarni vaqtinchalik qatorlardan birin-ketin chiqarib tashlash va baholash jarayoni.

“Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi” ko'rsatkichi aholining o'rtacha doimiy sonining o'zgarishiga nisbatan mamlakatda ko'rsatilgan xizmatlarga statistik baho beradi va aholi farovonligi darajasini baholashda foydalaniladi.

To'lov – pul majburiyatini naqd pul mablag'lari bilan bajarish yoxud pul mablag'larini to'lov vositalaridan foydalangan holda o'tkazish.

To'lov vositasi – to'lovni amalga oshirish uchun asos bo'ladigan yoki foydalaniladigan to'lov hujjati yoki elektron to'lov vositasi.

To'lov xizmati – to'lov xizmatini yetkazib beruvchining to'lov xizmatlaridan foydalanuvchiga ko'rsatadigan xizmati.

To'lov xizmatlari bozori – to'lov xizmatlarini ko'rsatish va ulardan foydalanish, shuningdek to'lov vositalarini chiqarish va ulardan foydalanish bilan bog'liq munosabatlar majmui.

Elektron pullar – O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullar emitentlari tomonidan chiqariladigan pullar bo'lib, faqat O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida nomlanishi lozim.

2- bob. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi va ularning hajmini shakllantirish

3. Bosh jamlanma va tanlanmani shakllantirish, birlamchi ma'lumotlarni yig'ish jarayonlarini tashkil etish va uni amalga oshirish, IV bosqich "Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish" doirasida amalga oshiriladi. GSBPM "Ma'lumotlarni qayta ishlash"ning V bosqichi doirasida esa ma'lumotlarni tasniflash va kodlash, yangi ma'lumotlarni shakllantirish, ularni umumlashtirish va qayta ishlashni yakunlash amalga oshiriladi.

4. Xizmatlar iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar yoki moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

Xizmatlar iste'molchilarining holatga o'zgartirish yuzasidan ishlab chiqaruvchilarga murojaati natijasidagi o'zgarishlar quyida keltirilgan turli shakllarda bo'lishi mumkin:

a) iste'mol tovarlari holatiga o'zgarishlar (transportirovka, tozalash, ta'mirlash yoki o'zgarishning boshqa turlari);

b) alohida shaxslarning jismoniy holatiga o'zgarishlar (masalan, terapevtik yoki jarrohlik muolajalari bilan ta'minlaydi, tashqi ko'rinishni yaxshilaydi);

d) alohida shaxslarning intellektual holatiga o'zgarishlar (ta'lim, axborotlar, maslahatlar, ko'ngilochar yoki shunga o'xshash xizmatlarni taqdim etadi).

O'zgarishlar vaqtinchalik yoki doimiy bo'lishi mumkin.

5. Ayirboshlash bo'yicha operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlar, bir institutsional birlik bilimlar zaxirasiga ega bo'lgan tovarlar, mahsulotlar, ayrim xizmatlar yoki moliyaviy aktivlarga bo'lgan egalik huquqini bir institutsional birlikdan boshqasiga o'tkazilishida yordam bergan paytda yuzaga keladi.

Ayirboshlash bilan bog'liq xizmatlar, ulgurji va chakana savdo hamda moliyaviy muassasalar tomonidan taqdim etiladi.

Xizmatning o'ziga xos xususiyati bo'lib, xizmatni bajarish va uni iste'mol qilish davrining bir xil vaqtga to'g'ri kelishi hisoblanadi.

6. Bilimlar zaxirasiga ega bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar, iste'molchilar bir necha marotaba foydalanishi mumkin bo'lgan, axborotlarni taqdim etish, saqlash va tarqatish, maslahatlar va ko'ngilochar

o'yinlar, shu jumladan umumiy va maxsus axborotlar, yangiliklar, maslahatchilarning ma'ruzalari, kompyuter dasturlari, kinofilmlar, musiqa va boshqalarni ishlab chiqarish bilan bog'liq holda ish olib boradilar.

Ushbu xizmatlar qatoriga tovarlarning moddiy xususiyatlari ham xos bo'lishi mumkin (masalan, qog'oz yoki elektron shaklda).

7. Xizmatlar oldi-sotdi obyekti bo'lib, iqtisodiy ahamiyatga ega (xizmatlarni ishlab chiqaruvchining sarf-xarajatlarini to'laligicha yoki sezilarli darajada qoplaydigan) narxlarda sotilganda bozor xizmatlari ishlab chiqarilishi hisoblanadi. Bozor xizmatlari yetkazib beruvchi va iste'molchi o'rtasida xizmat ko'rsatish shartnomasi asosida ko'rsatiladigan xizmatlarni o'z ichiga oladi.

Nobozor ishlab chiqarilgan xizmatlarga, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan narxlar mavjud bo'lmagan sharoitlarda (bepul asosda) iste'molchilarga ko'rsatiladigan xizmatlar kiradi, ular ijtimoiy yo'naltirilgan hisoblanadi va har qanday darajadagi budjet mablag'lari yoki budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari, shuningdek, jamoat tashkilotlari jamg'armalari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlanmagan boshqa manbalar, mahsulot va xizmatlarni davlat tomonidan tartibga solinadigan narxlar (tariflar) bo'yicha sotishdan kelib chiqadigan zararlarni qoplash hisobidan to'lanadi. Masalan, nobozor xizmatlarga ta'lim, sog'liqni saqlash, davlat boshqaruvi, mudofaa va boshqa sohalarda bepul xizmatlar kiradi.

8. Ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini o'lchovchi "Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi" statistik ko'rsatkichi, iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslar, norezidentlarni qo'shgan holda) ko'rsatilgan xizmatlar qiymatini aks ettiradi.

Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, shu jumladan, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), xizmatlarga to'lovlarni amalga oshirish sanasida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan so'mning belgilangan kursi bo'yicha qayta hisoblangan, shartnoma narxlari bo'yicha aniqlanadi.

9. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar hajmida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlari bo'yicha, qo'shilgan qiymat solig'i va aksizsiz hisoblangan to'lovlar hisobga olinadi.

10. Faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarni tasniflash, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar,

xizmatlarning) statistik tasniflagichiga (keyingi o‘rinlarda MST deb ataladi) muvofiq amalga oshiriladi.

11. Xizmatlar hajmi barcha iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024- yil 31- maydagi 125- son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil (kengaytirilgan) ro‘yxati”ga muvofiq shakllantiriladi.

12. Xizmatlarning oylik hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) yirik tijorat korxonalari bo‘yicha statistika hisoboti;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini (shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini baholash) choraklik kuzatuv ma’lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari asosida faoliyati tugatilgan korxonalar bo‘yicha hisoblangan hajmlarni hisobga olgan holda baholash;

d) fermer xo‘jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma’lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o‘zini o‘zi band qilgan shaxslar tomonidan ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmini har chorakda o‘tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma’lumotlarining natijalari bo‘yicha baholash.

Xizmatlarning umumiy hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shakllantirish sxemasi uslubiy nizomning 1- ilovasida ko‘rsatilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari, kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot bo‘yicha aniqlashtirilgan ma’lumotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha xizmatlar hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni shakllantirishda foydalaniladi.

13. Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlarning o‘rtacha oylik hajmi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$V_{mn} = (V_{mn-1}/3) \times K_c ,$$

bu yerda, V_{mn-1} – to‘g‘rilash koeffitsiyentini hisobga olgan holdagi jami to‘plamga joriy etilgan oldingi chorak uchun tanlanma kuzatuv ma’lumotlari;

K_c – anketaga kiritilgan o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan iqtisodiy holatning “yaxshilanish”i yoki “yomonlashish”ishini baholovchi ko'rsatkichlar asosida hisoblangan to'g'rilash koeffitsiyenti.

14. To'g'rilash koeffitsiyenti quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$K_c = \frac{\bar{I}_n}{100} \times D_n,$$

bu yerda, D_n – yaqin uch oyda yaxshilanish istiqboliga ega bo'lgan kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi;

$\bar{I}_n$ – avvalgi uch yil uchun joriy chorakda xizmatlar hajmining o'tgan chorakka nisbatan o'zgarish indeksini o'rtacha miqdori (foizlarda) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\bar{I}_{n\text{ ke}} = \sqrt[3]{I_{t_1} \times I_{t_2} \times I_{t_3}},$$

bu yerda, $I_{t_1}, I_{t_2}, I_{t_3}$ – avvalgi uch yil uchun kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmining joriy chorakning o'tgan chorakka nisbatan o'zgarish indeksi.

To'g'rilash koeffitsiyentini hisoblash namunasi uslubiy nizomning 2- ilovasida keltirilgan.

15. Chorakning oxirgi oyida xizmatlar hajmi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$V_3 = (V_{ln} + V_{mn}) - V_1 - V_2$$

bu yerda, V_3 – chorakning oxirgi oyida xizmatlar hajmi;

V_1, V_2 – hisobot choragining birinchi va ikkinchi oylarida xizmatlarning hisoblangan hajmi.

16. Hisobot yili davomida tugatilgan xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyatini baholash ushbu tashkilotlarning o'tgan yilda xizmatlari hajmi to'g'risidagi ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

Hisobot yilida tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan xizmatlarning choraklik hajmi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$V_{ln} = V_{lpr} / V_{mpr} \times V_{mn},$$

bu yerda, V_{ln} – hisobot yilining n choragida faoliyati tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi;

V_{lpr} – hisobot yilida faoliyati tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan oʻtgan yil uchun koʻrsatilgan xizmatlar hajmi;

V_{mpr} – kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan oʻtgan yil uchun koʻrsatilgan xizmatlar hajmi;

V_{mn} – butun toʻplamga joriy qilingan kichik tadbirkorlik subyektlarining n chorak uchun oʻtkazilgan tanlanma kuzatuv maʼlumotlari.

17. Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan koʻrsatilgan xizmatlarning oylik hajmi choraklik tanlanma kuzatuvlari asosida quyidagi formula boʻyicha hisoblanadi:

$$V_{mtm} = (V_{ln} + V_{mn})/3,$$

bu yerda, V_{mtm} – tugatilgan korxonalar hajmini hisobga olgan holda, kichik korxona va mikrofirmalarning n chorak uchun tanlanma kuzatuv maʼlumotlari boʻyicha hisoblangan oʻrtacha oylik xizmatlar hajmi.

Tugatilgan kichik korxona va mikrofirmalarning choraklik koʻrsatilgan xizmatlar hajmlarini hisoblash namunasi uslubiy nizomning 3- ilovasida keltirilgan.

18. Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha koʻrsatilgan xizmatlarning oylik hajmini taqsimlash mikrofirmalar va kichik korxonalarning oʻtgan yil uchun yillik hisobot maʼlumotlarini hamda kichik tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma kuzatuvlari asosida baholash amalga oshiriladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan koʻrsatilgan xizmatlar hajmlarini hisoblash namunasi uslubiy nizomning 4- ilovasida keltirilgan.

19. Fermer xoʻjaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan koʻrsatilgan xizmatlarning oylik hajmlari oʻtgan yil uchun aniqlashtirilgan (yillik) maʼlumotlar asosida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushidan kelib chiqqan holda baholanadi.

20. Jismoniy shaxslar (yakka tartibdagi tadbirkorlar, oʻzini oʻzi band qilgan hamda belgilangan tartibda roʻyxatdan oʻtmagan jismoniy shaxslar) tomonidan isteʼmolchilarga koʻrsatiladigan xizmatlar hajmi har chorakda oʻtkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalariga koʻra baholanadi.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi, lekin yakka tartibdagi tadbirkor sifatida roʻyxatdan oʻtmagan jismoniy shaxslar (keyingi oʻrinlarda roʻyxatdan oʻtmagan jismoniy shaxslar deb ataladi) soliq

solish va javobgarlik choralari qo'llash maqsadida yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ko'rib chiqiladi.

Tanlangan statistika kuzatuvini o'tkazishdan maqsad jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi to'g'risida ma'lumotlarni to'plash va olingan ma'lumotlardan har bir hudud va umuman respublika bo'yicha xizmatlar hajmini baholash uchun foydalanishdir.

21. Jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini baholash uchun soliq organlarida qonun hujjatlariga muvofiq ro'yxatdan o'tib, xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi (shu jumladan transport faoliyati bilan shug'ullanuvchi) jismoniy shaxslar soni to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi. Shu bilan birga, kuzatuv o'tkazish joylarda va xizmat ko'rsatish obyektlarida faoliyatni amalga oshiruvchi barcha jismoniy shaxslarning 30 foizidan ko'p bo'lmagan qismi qamrab olinadi.

22. Bosh to'plam ulushi nuqtai nazaridan uning yetarli darajada representativligini ta'minlaydigan minimal tanlama hajmi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$P_n = \frac{t(1,96) \times w \times (1 - w)}{DELTA} \times N_i,$$

bu yerda:

P_n – representativ minimal hajmi (tanlama kuzatuv o'tkaziladigan jismoniy shaxslar soni);

$DELTA$ – representativ tanlamaning maksimal yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatosi;

t – representativ tanlamaning xatolari soni;

$w (1 - w)$ – taqsimlanishning variatsion darajasi.

N_i – jismoniy shaxslarning umumiy soni.

Xizmat ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar sonining minimal tanlama hajmini hisoblash uslubiy nizomning 6- ilovasida keltirilgan

23. Jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi har bir xizmat turi bo'yicha quyidagi formula yordamida baholanadi:

$$V_j = V_t + V_s + V_{io},$$

bu yerda, V_j – jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi.

V_i – yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi;

V_s – o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi;

V_{io} – ro‘yxatdan o‘tmagan jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatigan xizmatlar hajmi.

Tanlanma kuzatuv natijalariga ko‘ra yuqoridagi qayd etilgan tarkib bo‘yicha jismoniy shaxslar soni aniqlanadi.

Jismoniy shaxslar bo‘yicha xizmatlar hajmini baholash tegishli ravishda quyidagi formulalar bo‘yicha amalga oshiriladi:

$$\begin{aligned} V_i &= V_{xi} \times L_i, \\ V_s &= V_{xs} \times L_s, \\ V_{io} &= V_{xio} \times L_{io}, \end{aligned}$$

bu yerda, V_i – yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi;

V_s – o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi;

V_{io} – ro‘yxatdan o‘tmagan jismoniy shaxslar tomonidan ko‘rsatigan xizmatlar hajmi;

V_{xi} – kuzatuv bo‘yicha bitta yakka tartibdagi tadbirkorga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xizmatlar hajmi;

V_{xs} – kuzatuv bo‘yicha bitta o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxsga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xizmatlar hajmi;

V_{xio} – kuzatuv bo‘yicha bitta ro‘yxatdan o‘tmagan jismoniy shaxsga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xizmatlar hajmi;

L_i – soliq organlari ma’lumotlariga ko‘ra ro‘yxatdan o‘tgan yakka tartibdagi tadbirkorlar soni;

L_s – soliq organlari ma’lumotlariga ko‘ra o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslar soni;

L_{in} – ro‘yxatdan o‘tmagan jismoniy shaxslar soni.

L_f – hisobot davrida xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jami jismoniy shaxslar soni.

$$L_f = \frac{L_i}{W_i} \times 100_i,$$

W_i – soliq organlari ma’lumotlari bo‘yicha hisobot davrida ro‘yxatdan o‘tgan jismoniy shaxslarning ulushi.

$$W_i = \frac{L_{iv}}{L_i},$$

bu yerda, L_{iv} – hisobot davrida soliq organlari ma'lumotlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslardan kuzatilganlari soni (30 foizdan ko'p bo'lmagan);

bu yerda, L_i – hisobot davrida soliq organlari ma'lumotlari bo'yicha tanlab olingan ro'yxatdan o'tkazilgan jismoniy shaxslarning umumiy soni.

Ro'yxatdan o'tmagan jismoniy shaxslar sonini hisoblash L_{in} quyidagi formula bo'yicha amalga oshiriladi:

$$L_{in} = \frac{L_i}{W_i} \times 100 - L_i,$$

Jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar hajmi va xizmat ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar sonini hisoblash namunasi (tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra) uslubiy nizomning 5-ilovasida keltirilgan

24. Jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmi xizmat (faoliyat) turlari bo'yicha ma'lumotlarning yig'indisi sifatida aniqlanadi.

25. Xizmatlar hajmi to'g'risida aniqlashtirilgan ma'lumotlar yilda bir marta yirik tijorat korxonalari, notijorat tashkilotlar, qishloq xo'jaligi korxonalari, fermer xo'jaliklarini qo'shgan holda kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha hisobot yilida statistika hisobotlari ma'lumotlari hamda hisobot davrida tugatilganlar, kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyatini va xizmat ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar faoliyatini baholash asosida shakllantiriladi.

26. Tumanlar kesimida xizmatlar hajmi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 1- maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-4702- son qaroriga muvofiq, hududlarni kompleks va mutanosib ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, iqtisodiy va investitsiyaviy salohiyatini, shuningdek, hududlarning boshqa qiyosiy ustunliklarini baholashning yagona tizimini joriy etish maqsadida shakllantiriladi.

27. Xizmatlari hajmi har chorakda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining tuman va shaharlari kesimida shakllantiriladi.

28. Tuman va shaharlar kesimida xizmatlar hajmi quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) mos davr uchun yirik tijorat korxonalari bo'yicha statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari asosida faoliyati tugatilgan korxonalar bo'yicha hisoblangan hajmlarni hisobga olgan holda baholash;

d) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

e) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlarining natijalari bo'yicha baholash.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning choraklik hajmlarini taqsimlash o'tgan yildagi yillik hisobot hamda kichik tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga asosan, ularning kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmlaridagi ulushi bo'yicha amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning choraklik hajmlari o'tgan yil uchun aniqlashtirilgan (yillik) ma'lumotlar asosida, ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushidan kelib chiqqan holda baholanadi.

29. Ayrim turdagi xizmatlar uchun tuman va shaharlar kesimida xizmatlar hajmini shakllantirish mumkin bo'lmagan hollarda, Demografiya, mehnat va gender statistikasi boshqarmasi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining tuman va shaharlari kesimida o'rtacha doimiy aholi soni), Statistik registrlarni yuritish va tizimli xizmat ko'rsatish boshqarmasi (mos davr uchun faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni), shuningdek, tegishli vazirlik va idoralarning ma'muriy manba ma'lumotlaridan hajmi hisoblashda foydalaniladi.

30. Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi – ma'lum bir davr yakuniga ko'ra bir kishiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmini aks ettiruvchi nisbiy ko'rsatkich.

Xizmatlar hajmi aholining o'rtacha doimiy soniga nisbati sifatida hisoblanadi:

bu yerda V_p – ko'rib chiqilayotgan davrda aholi jon boshiga xizmatlar hajmi;

V_o – ko‘rib chiqilayotgan davr uchun xizmatlar hajmi;

P – ko‘rib chiqilayotgan davrda o‘rtacha doimiy aholi soni.

31. O‘rtacha doimiy aholining soni – ma’lum bir hudud bo‘yicha tegishli davr uchun doimiy aholining o‘rtacha arifmetik soni.

32. Ko‘rsatkich O‘zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri, shuningdek, tumanlar va shaharlar kesimida shakllantiriladi.

Hududlar bo‘yicha aholi jon boshiga xizmatlar hajmi quyidagi formulaga asosan hisoblanadi:

$$V_{pn} = \frac{V_{on}}{P_n},$$

bu yerda V_{pn} – hudud bo‘yicha aholi jon boshiga xizmatlar hajmi;

V_{on} – hudud bo‘yicha xizmatlar hajmi;

P_n – hudud bo‘yicha o‘rtacha doimiy aholi soni.

3- bob. Ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi indeksini joriy va taqqoslama narxlarda aniqlash

33. Bosh jamlanma va tanlanmani shakllantirish, birlamchi ma’lumotlarni yig‘ish jarayonlarini tashkil etish va uni amalga oshirish, IV bosqich “Birlamchi ma’lumotlarni yig‘ish” doirasida amalga oshiriladi. GSBPM “Ma’lumotlarni qayta ishlash”ning V bosqichi doirasida esa ma’lumotlarni tasniflash va kodlash, yangi ma’lumotlarni shakllantirish, ularni umumlashtirish va qayta ishlashni yakunlash amalga oshiriladi.

34. Fizik hajmi indeksini hisoblash uchun axborot manbai bo‘lib, tashkilotlar (yuridik shaxslar) tomonidan taqdim etilgan statistika hisobotlarining birlamchi statistik ma’lumotlari, shuningdek, xizmat ko‘rsatish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvidan olingan ekstrapolyatsiya qilingan birlamchi statistik ma’lumotlaridir.

35. Yillik ma’lumotlarni shakllantirishda FHIni hisoblash hisobot yili uchun bazaviy yilga nisbatan, oylik ma’lumotlarni shakllantirishda hisobot oyi uchun bazaviy yilning tegishli oyiga nisbatan, shuningdek, joriy yil boshidan boshlab bazaviy yilning tegishli davriga nisbatan hisoblab chiqiladi.

36. Narx omilining faqat xizmatlar narxiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

37. FHI ni deflyatorlash usuli bilan hisoblash xizmatlar hajmining dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan bo'lib, keyinchalik bosqichma-bosqich alohida indekslarni yig'ish orqali iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha umumlashtirilgan indekslarga shakllantiriladi.

38. Xizmatlar FHI ni deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari:

- ushbu usul indeksga turli xil xizmatlar guruhlarini kiritishga imkon beradi;
- statistika tanalmasining kuzatuv narxlari tegishli xizmatlar guruhining reprezentativligi sifatida qo'llanilishi mumkin;
- deflatatsiya usuli ko'rsatilayotgan xizmatlarning sifat o'zgarishini hisobga olishga imkon beradi.

39. Xizmatlarning ko'rsatilishi u amalga oshirilgan vaqtni anglatadi va o'sha davrda ustun bo'lgan asosiy narxlarda baholanadi.

40. Deflyator sifatida joriy narxlardagi xizmatlar hajmini bazaviy davr narxlariga moslashtirish uchun iste'mol narxlari indeksi (bundan buyon matnda H va J dan tashqari G dan s gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha CPI deb yuritiladi) va mahsulot ishlab chiqaruvchilar narxlari (bundan buyon matnda H va j bo'limlari uchun PPI deb yuritiladi) ishlatiladi.

41. Iste'mol narxlari indekslari va mahsulot ishlab chiqaruvchilar narxlari ishlab chiqilmaydigan xizmatlarning ayrim turlari uchun jismoniy hajm indekslarini hisoblash CPI konsolidatsiyalangan indeksdan foydalangan holda amalga oshiriladi

Xususan, umumiy narxlar indeksidan foydalangan holda deflyatorlash eng yaxshi yondashuv hisoblanadi, chunki bu holda pulning xarid qobiliyati o'zgarishi o'lchanadi. Pulning sotib olish qobiliyatini aks ettiradigan umumiy narx indekslariga YAIM deflyatori, ichki yakuniy talab deflyatori va umumiy CPI kabilar misol bo'la oladi.

Xizmatlarning asosiy turlari bo'yicha deflyatorlardan foydalanish jadvali 11-ildovada keltirilgan. Narxlar statistikasi hisobini yuritish metodologiyasi va xizmatlar sohasi o'zgarganda deflyatorlar qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

42. FHI – bu ma'lum vaqt ichida ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'zgarishini aks ettiruvchi qiymat og'irligidir.

43. Xizmatlar hajmi dinamikasini aniqlash uchun ikkita indeks qo'llaniladi:

xizmatlarning qiymat hajmi indeksi (joriy narxlarda);

xizmatlarning fizik hajmi indeksi (taqqoslama narxlarda).

44. Joriy narxlarda xizmatlarning qiymat hajmi indeksi, hisobot davridagi (yoki taqqoslanayotgan boshqa davrdagi) xizmatlar umumiy hajmi bazis davridagi xizmatlar hajmi yig'indisiga nisbati sifatida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$I_{vt} = \frac{V_{on}}{V_{bn}} \times 100 ,$$

bu yerda, I_{vt} – joriy narxlarda xizmatlarning qiymat hajmi indeksi;

V_{on} – hisobot davrida xizmatlar hajmi yig'indisi;

V_{bp} – bazis davrida xizmatlar hajmi yig'indisi.

Joriy narxlarda xizmatlarning qiymat hajmi indeksi, xizmatlar hajmini ikkita omil hisobiga o'zgarishini ifodalaydi – narxlar o'zgarishi va ko'rsatilgan xizmatlar miqdorining o'zgarishi.

45. Hisobot davrining taqqoslama narxlardagi xizmatlar hajmi bazis davri narxlarida quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$V_{os} = \frac{V_{on}}{I} \times 100 ,$$

bu yerda, V_{os} – hisobot davrining taqqoslama narxlardagi xizmatlar hajmi yig'indisi;

I – deflyator.

Joriy va taqqoslangan narxlarda xizmatlar hajmi indeksini hisoblash namunasi uslubiy nizomning 7- ilovasida keltirilgan.

46. FHI har bir asosiy xizmat turi uchun alohida hisoblanadi.

Xizmatlarning fizik hajmi indeksini turlari bo'yicha hisoblash algoritmi:

muayyan faoliyat turi bo'yicha xizmatlarning fizik hajmi indeksini deflyator yordamida aniqlash:

$$I_{fi} = \frac{\frac{V_{oni}}{I_i} \times 100}{V_{bni}} \times 100 ,$$

bu yerda I_{fi} – tegishli xizmat turining FHI;

V_{oni} – hisobot davridagi tegishli xizmat turining umumiy hajmi;

V_{bni} – bazis davridagi tegishli xizmat turining umumiy hajmi;

I_i – tegishli xizmat turi uchun deflyator.

47. Muayyan xizmat turi bo'yicha uning fizik hajmi indeksini aniqlash:

$$I_{si} = \frac{I_i \times D_i}{100},$$

bu yerda I_{si} – ma'lum bir xizmat turini fizik hajmining o'lgangan indeksi;

I_i – ma'lum bir xizmat turi bo'yicha fizik hajmi indeksi;

D_i – bazis davridagi xizmatlarning umumiy hajmidagi ma'lum bir xizmat turining ulushi;

48. Xizmatlarning har bir faoliyat turi bo'yicha fizik hajmi indeksini yig'indisini xizmatlarning fizik hajmi o'rtacha indeksini aniqlash:

$$I_{sit} = I_{si1} + I_{si2} + \dots + I_{nsi}.$$

49. Yuqorida keltirilgan xizmatlarning jismoniy hajmi indeksini hisoblash hisobot yilining boshidan va o'tgan yilning boshidan tegishli davrdagi xizmatlar hajmi ko'rsatkichlariga asoslanadi.

Mavsumiy tartibga solishning dinamik qatorlarini yuritish uchun bir oy davomida xizmatlarning jismoniy hajmi indeksini bir vaqtning o'zida hisoblash tavsiya etiladi.

T va $t-1$ oylari uchun joriy narxlarda alohida faoliyat turi bo'yicha xizmatlar hajmi o'zgarishining individual indeksi bazis yilda ushbu faoliyat turidagi xizmatlarning o'rtacha oylik hajmiga nisbatan hisoblanadi:

$$T_{t/b} = \frac{v_t}{(v_b)/12} \times 100,$$

$$T_{t-1/b} = \frac{v_{t-1}}{(v_b)/12} \times 100,$$

bu yerda, $T_{t/b}$ va $T_{t-1/b}$ – t va $t-1$ oylari uchun joriy narxlarda alohida faoliyat turi bo'yicha xizmatlar hajmining bazis yil xizmatlarining o'rtacha oylik hajmiga nisbatan foizlarda o'zgarishi ko'rsatkichlari;

V_t va v_{t-1} – joriy narxlarda t va $t-1$ oylari uchun alohida faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar hajmi;

$(V_b)/12$ – bazis yilda alohida faoliyat turi bo'yicha xizmatlarning o'rtacha oylik hajmi;

Alohida faoliyat turlari bo'yicha bazaviy yilning o'rtacha yillik narxlarida xizmatlarning individual indeksleri formulalar bo'yicha aniqlanadi:

$$I_{t/b} = T_{t/b} / I_{str(d/b)} \times I_{str(t/d)};$$

$$I_{t-1/b} = T_{t-1/b} / I_{str(d/b)} \times I_{str(t-1/d)};$$

$$I_{t/t-1} = I_{t/b} / I_{t-1/b}$$

bu yerda $I_{str(d/b)}$ va $I_{str(t-1/d)}$ – t va $t-1$ oy narxlari indeksleri bazaviy yil

dekabriga qadar;

$I_{str(d/b)}$ – bazis yilining dekabr oyidagi narxlar indeksi bazis yilining o‘rtacha narxlariga nisbatan;

$I_{t/b}$ – bazis yilidagi xizmatlarning o‘rtacha oylik hajmiga nisbatan t oyi uchun alohida faoliyat turi bo‘yicha xizmatlarning individual indeksi;

$I_{t-1/b}$ – bazis yilidagi xizmatlarning o‘rtacha oylik hajmiga nisbatan $t-1$ oy uchun alohida faoliyat turi bo‘yicha xizmatlarning individual indeksi;

$I_{t/t-1}$ – $t-1$ oyiga nisbatan t oyi uchun alohida faoliyat turi bo‘yicha xizmatlarning individual indeksi.

t va $t-1$ oylar uchun bazis yilning o‘rtacha narxlarida alohida faoliyat turi bo‘yicha xizmatlar hajmi quyidagi formulalar orqali aniqlanadi:

$$V_{tb} = (V_b)/12 \times i_{t/b};$$

$$V_{(t-1)b} = (V_b)/12 \times i_{t-1/b}$$

bu yerda V_{tb} va $V_{(t-1)b}$ – t va $t-1$ oylar uchun bazis davrning o‘rtacha narxlarida alohida faoliyat turi bo‘yicha xizmatlar hajmi.

50. Yil boshidan boshlab bazis yilning o‘rtacha narxlaridagi xizmatlar hajmi ularning oylik qiymatlari yig‘indisidir.

51. Keyingi bosqichlarda hisoblashda olingan xizmatlar indeksleri kengaytirilgan IFUT tasniflagich guruhleri bo‘yicha xizmatlar indekslariga, so‘ngra bazis yilning yalpi ishlab chiqarishni yig‘ish uchun o‘lchov sifatida foydalangan holda xizmatlar indeksiga birlashtiriladi, bu esa har bir iqtisodiy faoliyatning xizmatlar indeksiga ta‘sirini hisobga olishga imkon beradi.

4- bob. Diskret choraklar asosida ko‘rsatkichlarni shakllantirish

52. Bosh jamlanma va tanlanmani shakllantirish, birlamchi ma’lumotlarni yig‘ish jarayonlarini tashkil etish va uni amalga oshirish, IV bosqich “Birlamchi ma’lumotlarni yig‘ish” doirasida amalga oshiriladi. GSBPM “Ma’lumotlarni qayta ishlash”ning V bosqichi doirasida esa ma’lumotlarni tasniflash va kodlash, yangi ma’lumotlarni shakllantirish, ularni umumlashtirish va qayta ishlashni yakunlash amalga oshiriladi.

53. Iqtisodiy statistika ko‘rsatkichlarini joriy narxlarda choraklik hisoblash sxemasi aynan shu ko‘rsatkichning yillik hisob-kitoblaridan umuman olganda farq qilmaydi. Ammo choraklik hisob-kitoblarni amalga oshirish davrida axborot manbalarining cheklanganligi sababli, ulardagi ko‘rsatkichlar batafsil ajratib ko‘rsatilmaydi hamda hisoblash uslublari sezilarli darajada soddalashtiriladi. Ayrim hollarda ekspert baholashlar va bilvosita hisob-kitoblar

amalga oshiriladi.

54. Diskret choraklar bo'yicha iqtisodiy statistika ko'rsatkichlarini va ularning tarkibiy qismlarini doimiy narxlarda hisoblashda bazis yilning o'rtacha narxlaridan foydalaniladi. Bazis yilning o'rtacha narxlarida diskret davrlar bo'yicha shakllantirilgan ma'lumotlarning ushbu xususiyati choraklar bo'yicha dinamik qatordagi har bir chorakni o'tgan chorak, o'tgan yilning mos choragi va ixtiyoriy boshqa chorak bilan taqqoslash imkonini beradi.

55. O'rtacha narxlardagi tafovutlar, hisob-kitoblarda foydalanilayotgan vaznlar (ulushlar)ning turlichaligi, mavsumiy o'zgarishlar, shuningdek, ma'lumotlar manbalarining batafsil yoki cheklanganligi kabi omillar ta'sirida yillik va choraklik ma'lumotlar o'rtasida muayyan farqlar kelib chiqishi mumkin. Shu sababli diskret choraklar bo'yicha joriy va doimiy narxlarda shakllantirilgan ko'rsatkichlarni dinamik qatorlar ko'rinishida tahlil qilishda ularni yillik ma'lumotlar bilan o'zaro muvofiqlashtirish muhim ahamiyatga ega.

56. Yillik va choraklik dinamik qatorlarni muvofiqlashtirishda eng kichik kvadratlar usulidan foydalaniladi. Bu usul dinamikani saqlab qolish tamoyiliga asoslangan bo'lib, unga ko'ra choraklar bo'yicha o'sish sur'atlari dastlabki va tuzatish kiritilgan qatorlarda maksimal darajada yaqin bo'lishi yoki choraklar uchun tuzatishlarning absolyut qiymati eng kichik qiymatga teng bo'lishi kerak.

57. Yillik ma'lumotlar bilan muvofiqlashtirilgan choraklik ko'rsatkichlar va dastlabki ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqning qaysi ko'rinishda ifodalanishiga ko'ra, eng kichik kvadratlar usulining ikkita formulasidan foydalanish mumkin.

$$\sum_{t=4y-3}^{4y} X_t = A_y - \text{shart bajarilganda (ya'ni, choraklik qiymatlarning yig'indisi}$$

yillik ma'lumotlarga teng bo'lishi kerak):

$$\text{Additiv usul: } \min \sum_{t=2}^T [X_t - X_{t-1}]^2,$$

$$\text{Multiplikativ usul: } \min \sum_{t=2}^T \left[\frac{X_t}{I_t} - \frac{X_{t-1}}{I_{t-1}} \right]^2, \text{ bu yerda:}$$

t – vaqt (masalan, $t = 4y - 3$ ifodasi y yilning birinchi choragini, $t = 4y$ esa y yilning to'rtinchi choragini bildiradi),

X_t – t chorak uchun hisoblab topilgan choraklik baholash,

I_t – t chorak uchun indikator qiymati,

A_y – y yil uchun yillik baholash,

T – dastlabki choraklik ma'lumotlar mavjud bo'lgan oxirgi chorak.

Bu ikkala yondashuv bir-biriga yaqin natijalarni beradi ammo mavsumiy o'zgarishlar xususiyatiga ega bo'lgan qatorlar bundan mustasno. Mavsumiy xususiyatlarga ega qatorlar uchun ikkinchi – multiplikativ usul ko'proq mos keladi.

58. Choraklik va yillik ma'lumotlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlashda Xalqaro valyuta jamg'armasining Statistika departamenti tomonidan Microsoft Excel dasturiy vositasiga qo'shimcha ravishda ishlab chiqilgan XLPBM funksiyadan foydalaniladi.

5- bob. Mavsumiy o'zgarishlarni o'tkazish usuli

59. Bosh jamlanma va tanlanmani shakllantirish, birlamchi ma'lumotlarni yig'ish jarayonlarini tashkil etish va uni amalga oshirish, IV bosqich "Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish" doirasida amalga oshiriladi. GSBPM "Ma'lumotlarni qayta ishlash"ning V bosqichi doirasida esa ma'lumotlarni tasniflash va kodlash, yangi ma'lumotlarni shakllantirish, ularni umumlashtirish va qayta ishlashni yakunlash amalga oshiriladi.

60. Mavsumiylik darajasiga moslashtirilgan ko'rsatkichlar statistik kuzatuvlar uchun standart vosita bo'lib, asosiy ko'rsatkichlar bilan birgalikda ishlab chiqiladi. Ular ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar modellari va tendensiyalarini aniqlash hamda o'lchashga, ushbu jarayonlarda yuz beradigan o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlashga imkon beradi.

Mavsumiy o'zgarishlarni o'tkazish uchun TRAMO/SEATS usuli yordamida Yevropa statistika tizimi ekspertlarining rahbarligi ostida ishlab chiqilgan "Demetra+" dasturiy ta'minotidan foydalaniladi.

Mavsumiy o'zgarish jarayoni quyidagi bosqichlardan iborat:

dastlabki sharoitlarni baholash;

mavsumiy o'zgarish;

natijalarni tahlil qilish;

foydalanuvchilarga ma'lumotlarni taqdim etish.

61. Mavsumiy o'zgarish, dastlabki ma'lumotlarni baholash va "Demetra+" dasturida ishlash uchun ma'lumotlarni belgilangan formatga o'tkazilishi bilan boshlanadi. Davriy qatorlarning sifati birlamchi ma'lumotlarning to'g'riligiga va hisoblangan ko'rsatkichlarni aniqlash uslubiyati belgilangan mezonlarga muvofiqligiga bog'liq.

62. Diskret choraklik davriy qatorlarni tuzishda kamida to‘rt yillik ko‘rsatkichlardan foydalanish tavsiya etiladi. Hisoblashda diskret chorakda o‘tgan yilning to‘rtinchi choragiga nisbatan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini o‘zgarish indeksidan foydalanish kerak.

Mavsumiy o‘zgarishlarning maqsadi davriy qatorlardan mavsumiy o‘zgarishlarni ajratib olishdan iborat bo‘lib, boshlang‘ich ma’lumotlarda mavsumiylikni mavjudligi muhimdir.

63. Taqvim effektlari kalendar bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday iqtisodiy hodisalar bo‘lib, ular davriy qatorlarning mavsumiy o‘zgarishini bajarishdan oldin olib tashlanadi. Kabisa yilining effekti, turli xil ish kunlari, ko‘chiriladigan bayramlar muayyan vaqt davomida ish faoliyati darajasiga ta’sir qiladi.

64. Dasturiy ta’minotda “Taqvim” modulining mavjudligi barcha bayramlar, ko‘chiriladigan ish va dam olish kunlari hisobga olingan kalendar yaratish imkonini beradi.

Dasturda ishlash uchun o‘zgartiriladigan ko‘rsatkichlarni “Excel” fayli ko‘rinishida tayyorlash kerak. Vertikal ravishda tuzilgan “Excel” fayli formati quyidagicha bo‘lishi kerak:

barcha varaqlarda A1 yacheykasi bo‘sh bo‘lishi va A ustunda kuzatuvlarning asos qilib olingan sanalari qayd etilishi kerak;

birinchi qator, ya’ni B1, C1 va boshqa yacheykalar ma’lum bir qator nomini o‘z ichiga olishi kerak; varaqning ichida har bir qatorning nomi noyob bo‘lishi kerak;

qatorlar nomlanishidan keyingi yacheykalar davriy qatorlarni o‘z ichiga oladi;

o‘tkazib yuborilgan ma’lumotlar bo‘sh yacheyka bilan belgilanadi.

65. “Demetra+” dasturiy ta’minoti fayldagi qatorlarni varaqning nomi va har bir qator nomidan belgilaydi.

TRAMO/SEATS usuli yordamida qatorlarni asosiy tarkibiy qismlarga bo‘lish mumkin: mavsumiy, trend-siklli, nomuntazam, shuningdek, oraliq tarkibiy qismlar. Ushbu tarkibiy qismlar qo‘shish yoki ko‘paytirish orqali boshlang‘ich qatorga birlashtiriladi. Tarkibiy qismlarni aniqlab bo‘lgach, mavsumiy o‘zgarish mavsumiy komponentni manba ma’lumotlaridan o‘chirib tashlab, mavsumiy o‘zgarish qatorlarini hosil qiladi.

66. Mavsumiy komponent o‘z ichiga mavsumiy va kalendar effektlarni oladi. Komponentning muddati, yo‘nalishi va amplitudasi asosan barqarordir.

Nomuntazam komponent bu – manba ma'lumotlaridan mavsumiy va trend-sikl komponentlarini olib tashlangandan keyin qolgan tarkibiy qismdir. Bundan tashqari, har doim tasodifiy bo'lmagan xatolar ham mavjud bo'lishi mumkin. Oraliq komponent qisqa muddatli (oraliq) o'zgarishlar bilan ifodalanadi. Tarkibiy qismlar baholangandan so'ng nomuntazam va oraliq tarkibiy qismlarni qo'shish mumkin.

67. Trend – siklli komponent uzoq muddatli hamda o'rta muddatli o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Bu ikki o'zgarishlardan trend uzoq muddatli, ya'ni bir necha o'n yillardagi tarkibiy o'zgarishlar qatorlarning yashirin darajasini ifodalaydi va odatda inflyatsiya, texnologik o'zgarish yoki umumiy iqtisodiy rivojlanish natijasidir. Boshqa tarafdin sikl komponenti, uzoq muddatli trend atrofida nisbatan tekis o'zgarishlar bilan tavsiflanadi.

68. Taqvimiy o'zgartirishning maqsadi kun, (ish va dam olish kunlari soni) oy yoki chorakning davomiyligi va tarkibidan qat'iy nazar mavsumiy o'zgartirilgan qatorlarni olishdir.

Taqvim komponenti davrdan to davrgacha bo'lgan turli xil kalendar belgilar bilan bog'liq effektlarni o'z ichiga oladi. Taqvim effektlari mavsumiy va nomavsumiyga bo'linadi. "Nomavsumiy" qismi taqvim komponentiga kiritiladi va alohida ko'rib chiqiladi, "mavsumiy" qism mavsumiy komponentda hisobga olinadi. Foydalangan kalendar effektlari operatsion yoki ish kuni effektlarini o'z ichiga oladi.

69. Operatsion kunning effekti chorakda haftaning har bir kunini muayyan chorak davomida hafta ichidagi standart tarkibi bilan qiyoslaydi. Ish kunining ta'siri chorakda ish kunlari va dam olish kunlari o'rtasidagi farqni o'z ichiga oladi.

70. Bayramlar ish kunlari hisoblanmaydi. Dam olish kunlari soni bayramlar soniga qarab ko'payadi va ish kunlari soni mos ravishda kamayadi.

Ish kunlarining ta'siri ish kunlarining guruhini (dushanbadan jumagacha) tenglama orqali taqqoslaydigan yagona regressor tomonidan tutiladi:

Ish kunlari = haftaning kunlar soni – dam olish kunlari soni.

5/2 omili ish kunlarining regressini yetti kunlik haftaning standart tarkibida nolga tenglashtiradi. Haftaning standart haftasidan boshlab, agar ish kuni noldan katta bo'lsa, regressorda aks etadi, bu esa standart haftaga qaraganda bir oyda yoki chorakda ko'proq t ish kuni borligini bildiradi.

71. Harakatlanuvchi bayramlarning ta'siri yildan-yilga o'zgarib turadigan mamlakatda diniy yoki madaniy ahamiyatga ega bo'lgan hodisalar bilan bog'liq.

72. Kabisa yilining samarasi fevral oyida qo'shimcha bir kunni hisobga oladi, bu esa, to'rt yillik siklni kabisa yili birinchi choragining yuqori nuqtasi bilan yuzaga keltiradi (agar kabisa yilining fevral oyi bo'lsa, u holda "0,75" bo'ladi, aks holda "-0,25", kabisa yili bo'lmagan yillarda fevral oyi "0"ga teng). Kabisa yilining regressori to'rt yil mobaynida kabisa yili fevral oyining yuqori nuqtasi bilan to'rt yillik deterministik siklni ifodalaydi, kabisa yili samarasi kelgusida kabisa yili bo'lmagan yillarda salbiy samaralar bilan to'liq qoplanadi.

73. Mavsumiy o'zgarishlarni maqsadlari uchun TRAMO dastlabki davriy qatorlarning ma'lumotlarini o'zgartirishda SEATSdan foydalaniladi.

TRAMO foydalanadigan matematik formula:

$$Y_t = \beta \times X_t + Z_t,$$

bu yerda, Y_t – mavsumiylikdagi xatolar;

β – koeffitsiyent (tizim tomonidan avtomatik ravishda aniqlanadi);

X_t – kalendar effekti va chiqarib yuborilgan ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan bog'liq bo'lmagan o'zgaruvchilar;

Z_t – ko'rsatkichlar – tizim avtomatik ravishda tanlaydi.

74. Mavsumiy - to'g'irilangan ma'lumotlarning taqdimoti foydalanuvchilarning ehtiyojlariga bog'liq. Dastlabki bosqichda, nashrda asl (boshlang'ich) va mavsumiy-to'g'irilangan ma'lumotlar bir vaqtning o'zida matn va jadval ko'rinishida ko'rsatiladi.

75. Mavsumiy o'zgartirilgan ma'lumotlarni birinchi marta ko'rib chiqiladigan sanasi kalendar yilining boshida, o'zgartirilmagan ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqilishidan kamida uch yil oldin belgilanadi. Ushbu sana shaffoflik sababli to'rt yilgacha muddatga o'rnatiladi. Oldingi davrlar uchun mavsumiy omillar muzlatilib qo'yiladi.

6- bob. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobini yuritishning ma'lumotlar manbai

76. Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish mexanizmlarini shakllantirish, qayta ishlash va tahlil qilish komponentlarini shakllantirish yoki takomillashtirish, shuningdek ma'lumotlarni tarqatish GSBPM "ishlab chiqarish jarayonlarini shakllantirish" ning III bosqichi doirasida amalga oshiriladi.

77. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining jami hajmi quyidagi ma'lumotlar asosida shakllantiriladi (agar ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari soni qisqartirilsa yoki nomi o'zgartirilsa, ular ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi):

a) oylik:

12 korxona shakli "Tashkilot faoliyati to'g'risida hisobot" – tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslar (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilaridan tashqari), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari va notijorat tashkilotlar taqdim etadilar (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan belgilangan ro'yxat bo'yicha);

12 korxona (xizmat) (12 korxona shakliga ilova) "Hududiy alohida bo'linmalarga ega bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risida hisobot" – yuridik va jismoniy shaxslarga xizmat ko'rsatuvchi hududiy alohida bo'linmalarga ega bo'lgan tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirma va qishloq xo'jaligi tashkilotlaridan tashqari) hamda notijorat tashkilotlar taqdim etadilar (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan belgilangan ro'yxat bo'yicha);

b) choraklik:

kichik tadbirkorlik subyektlarining kuzatuv natijalari:

4 kb savolnoma "Mikrofirma va kichik korxonaning faoliyati to'g'risida savolnoma" – mikrofirma va kichik korxonalar savolnomada kuzatuv o'tkazilayotgan yilida bir marta ishtirok etadilar – (agentlik tomonidan belgilangan ro'yxat bo'yicha);

4 kb (qurilish, savdo, xizmat) "Mikrofirma va kichik korxonaning faoliyati to'g'risida savolnoma"da mikrofirmalar va kichik korxonalar (agentlik tomonidan belgilangan ro'yxat bo'yicha) kuzatilayotgan davrning har choragida ishtirok etadilar;

4 xizmat (jsh) "Bozor xizmatlarini ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar bo'yicha so'rovnoma" statistik so'rovnomasi bo'yicha tanlanma kuzatuv natijalarini baholash – kuzatiladigan birlik xizmat ko'rsatuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar hisoblanadi;

4 tr (jsh) "Shaxsiy avtotransport egalarining tashish faoliyati to'g'risida so'rovnoma" statistik so'rovnomasi bo'yicha tanlanma kuzatuv natijalarini baholash – kuzatiladigan birlik tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilganlar hisoblanadi;

d) yillik:

1 korxona shakli “Tashkilot xo‘jalik faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari to‘g‘risida hisobot” – tijorat tashkilotlari bo‘lgan barcha yuridik shaxslar (kichik korxona va mikrofirmalar, fermer xo‘jaliklari, banklar va sug‘urta tashkilotlaridan tashqari), tijorat tashkilot bo‘lgan yuridik shaxslarning alohida bo‘linmalari tomonidan taqdim etiladi;

1 kb shakli “Mikrofirma va kichik korxonaning hisoboti” – mikrofirma va kichik korxonalar taqdim etadilar;

1 notijorat shakli “Notijorat tashkilotning faoliyati to‘g‘risida hisobot” – notijorat tashkilotlar (jamoat birlashmalari, ijtimoiy fondlar, nodavlat muassasalar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari va xususiy uy-joy mulkdorlarining shirkatlari (XUJMSH) Xalq ta’limi vazirligining umumta’lim muassasalaridan tashqari) tuman (shahar) halq ta’limi bo‘limlari Xalq ta’limi vazirligining umumta’lim muassasalari yig‘ma hisobotini taqdim etadilar;

1 nnt shakli “Nodavlat notijorat tashkilotning faoliyati to‘g‘risida hisobot” – tashkiliy-huquqiy shakli, jamoat birlashmasi, jamoat fondi, muassasa, uyushma (ittifoq) bo‘lgan nodavlat notijorat tashkilotlar, xalqaro va chet el nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxona va filiallari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari taqdim etadilar;

1 fx shakli “Fermer xo‘jaligi faoliyati to‘g‘risida hisobot” – fermer xo‘jaliklari taqdim etadilar;

1 kom (kvartira) shakli “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlari faoliyati to‘g‘risida hisobot” – ko‘p kvartirali uylarni boshqaruvchi yuridik shaxslar taqdim etadilar.

7- bob. Statistik hisobotlarda aks ettirilgan ko‘rsatilgan xizmatlar

ko‘rsatkichlarini tahlil qilish

78. Ma’lumotlarni birlashtirish, tasniflash va kodlash, yangi ko‘rsatkichlarni shakllantirish, qayta ishlashni umumlashtirish va yakunlash jarayonlari GSBPM “ma’lumotlarni qayta ishlash”ning V bosqichi doirasida shakllanadi.

79. Barcha turdagi korxona va tashkilotlarning, shuningdek, jismoniy shaxslarning statistik hisobot ma’lumotlari va tanlanma kuzatuvlari asosida ko‘rsatkichlarni tahlil qilish (agar ushbu statistik hisobotlar va kuzatuvlarning soni qisqartirilsa yoki nomi o‘zgartirilsa, ular ushbu statistik hisobotlar va kuzatuvlar asosida shakllantiriladi)

80. Korxonalarning statistik kuzatuvlarini o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi 539-sonli "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga muvofiq faoliyat yurituvchi kompleks va doimiy yangilanib turiladigan korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat reestri asos bo'ladi.

81. Yillik ma'lumotlarni shakllantirishda, "yanvar-dekabr" hisobot davri uchun **12 korxona shakli** va **12 korxona (xizmat)** (12-korxona shakliga ilova) oylik statistik hisobotlari asosida olingan tezkor ma'lumotlar tegishli yil uchun **1 korxona shakli** yillik statistik hisobot ma'lumotlari bilan taqqoslanadi.

82. **1 korxona shakli** yillik statistika hisobotida aks ettirilgan ayrim xizmat turlari hajmining ko'rsatkichlari **1 aloqa shakli** "Aloqa vositalari va xizmatlari to'g'risida hisobot" shakli bo'yicha yillik hisobotida aloqa xizmatlari va **1 transport shakli** "Avtomobil, elektr (tramvay, metropoliten, trolleybus) transporti va xo'jalik avtomobil yo'llari uzunligi to'g'risida hisobot", **1 havo yo'llari shakli** "Umumiy foydalanishdagi havo transporti xizmatlari to'g'risida hisobot", idoraviy hisobotlar **1 temir yo'l (umumfoydalanadigan) shakli** "Umumiy foydalanishdagi temir yo'l transporti xizmatlari to'g'risida hisobot" "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tomonidan taqdim etiladi, "O'ztransgaz" AK tomonidan taqdim etiladigan **1 quvur yo'li shakli** "Quvur yo'li transporti xizmatlari to'g'risida hisobot" shakllari bo'yicha yillik hisobotlarda transport turlari bo'yicha transport xizmatlari aks ettirilgan ma'lumotlar bilan taqqoslanadi.

83. Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarning muhim manbai soliq organlarining ma'muriy ma'lumotlari hisoblanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslarning tanlanma kuzatuidan olingan ma'lumotlarning ishonchliligi va obyektivligini tekshirish maqsadida boshqa statistik ma'lumotlar, ya'ni uy xo'jaliklarining kuzatuvi, tarmoq statistikasining kuzatuvlari va h.k. bilan taqqoslanishi kerak.

Kuzatuv davrida jamlanma ma'lumotlarning o'zgarishini taqqoslash uchun mintaqalar (tumanlar) o'rtasida kuzatuv natijalaridan foydalanish zarur.

8- bob. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar statistik hisobining o'ziga xos xususiyatlari

84. Ma'lumotlarni tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, qayta ishlashni umumlashtirish va yakunlash GSBPM "ma'lumotlarni qayta ishlash"ning V bosqichi doirasida amalga oshiriladi.

85. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarning statistik hisobi umumiy xizmatlar hajmida ustunlikka ega bo'lgan xizmat turlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024- yil 31- maydagi 125- son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlarining batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Xizmatlarning umumiy hajmida ustun bo'lgan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar ro'yxati 8- ilovada keltirilgan.

86. Amaldagi narxlarda **aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini** ishlab chiqarish mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Kompyuter xizmatlari va telekommunikatsiya xizmatlari yetkazib berish usuli emas, balki xizmatning tabiati bilan belgilanadi. Masalan, buxgalteriya xizmatlari kabi biznes xizmatlarini taqdim etish boshqa biznes xizmatlarining tegishli tarkibiy qismiga kiritilgan, hatto ushbu xizmatlar to'liq kompyuter yoki Internet orqali yetkazib berilsa ham. Telekommunikatsiya xizmatlari kichik komponentiga faqat pul o'tkazmasi uchun to'lanadigan summalar kiritilishi kerak. Yuklab olinadigan tarkib tegishli xizmat toifalariga kiritilgan. "Telekommunikatsiya xizmatlari" kichik komponenti telefon, teleks, telegraf, radio va televidenie kabeli va radioeshittirish, sun'iy yo'ldosh aloqasi, elektron pochta, faksimil va boshqalar orqali ovoz, tasvir, ma'lumot yoki boshqa ma'lumotlarni uzatishni, shu jumladan tijorat tarmog'i xizmatlarini, telekonferentsiyalarni va tegishli aloqalarni o'z ichiga oladi. Bu uzatilgan ma'lumotlarning narxini o'z ichiga olmaydi. Ushbu toifaga mobil telefon xizmatlari, Internet magistral xizmatlari va pullik kirish xizmatlari, shu jumladan Internetga kirishni ta'minlash kiradi. Telefon tarmoqlari uskunalarini sozlash bo'yicha xizmatlar (qurilishga kiritilgan), shuningdek, ma'lumotlar bazalarini yaratish bo'yicha xizmatlar (axborot xizmatlariga kiritilgan) (*xalqaro xizmatlar savdosi statistikasi bo'yicha qo'llanma, 2010-yil*)

87. Moliyaviy xizmatlar Markaziy bank, tijorat banklari va boshqa moliya-kredit tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladi. Bu guruh xizmatlarga banklarning moliyaviy vositachiligi xizmatlari (moliyaviy lizing, kredit berish), shu jumladan, masofaviy bank xizmatlari (Internet-banking, mobil-banking), investitsiya fondlari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy vositachiligi, moliya bozorlari (fond va valyuta birjalari) faoliyatining yordamchi moliyaviy vositachilik xizmatlari va boshqa moliyaviy xizmatlar kiradi.

Amaldagi narxlarda moliyaviy xizmatlarning yalpi ishlab chiqarish hajmi, moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida) hisobga olinadi. Chet el valyutasida kelib tushadigan foizli daromadlar hisobot davridagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli kursi bo'yicha hisob-kitob qilinadi va so'mda aks ettiriladi.

Sug'urta tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan sug'urta xizmatlari hajmi to'g'ridan-to'g'ri sug'urta qilish bo'yicha sug'urta mukofotlari tushumini hamda qayta sug'urta qilish, qabul qilingan shartnomalar sug'urta mukofotlarini o'z ichiga oladi. Bunda sug'urtalovchilarga qayta sug'urta qilish uchun berilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofotlari chiqarib tashlanadi.

88. Amaldagi narxlarda transport xizmatlarining yalpi ishlab chiqarish hajmi transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Transport xizmatlari umumiy hajmida pochta va kuryerlik faoliyati bo'yicha yalpi ishlab chiqarish hajmi ham hisobga olinadi.

Quvur transporti sohasi faoliyati bo'yicha asosiy faoliyatdan xizmatlar hajmiga quvur orqali quyilgan neft va gaz mahsulotlarining qiymati qo'shilmaydi.

Hududlar bo'yicha transport yalpi ishlab chiqarilgan hajmi temir yo'l, havo va quvur transportida tashish xizmatlarining hajmini taqsimlashning imkoni yo'qligi sababli faqatgina avtomobil transporti bo'yicha aniqlanadi.

Yo'lovchi tashish bilan shug'ullanuvchi transport tashkilotlari xizmatlari hajmi yo'lovchi tashish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarda imtiyozli kartalar va jetonlar bo'yicha olinadigan daromadlarni ham o'z ichiga oladi. Ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatini to'liq aks ettirish uchun xizmatlar hajmida O'zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalariga

beriladigan imtiyozlarni qoplash uchun xarajatlar miqdori ham (QQS, aksiz va shunga o'xshash majburiy to'lovlarsiz) hisobga olinadi.

Avtomobil tashuvlari faoliyati sohasida tashkilotning o'z ehtiyojlari uchun bajarilgan yuk tashuvlarining (masalan, o'z mahsulotlarini o'zining chakana savdo tarmog'iga yetkazish, ichki xo'jalik, zavod ichi, obyekt ichida va shunga o'xshash yuk tashuvlari) qiymati aks ettirilmaydi.

“Transport xizmatlarini ko'rsatuvchi provayder boshqa operatorlarning xizmatlaridan yakuniy transport xizmatining bir qismini taqdim etish va foydalanishi uchun xizmatlarning bir qismini subpudrat shartnomasiga o'tkazishi mumkin. Bunday xizmatlar yalpi usulda hisobga olinishi kerak. Masalan, kuryerlik xizmatlarini ko'rsatuvchi provayder bir nechta transport kompaniyasi bilan alohida shartnomalarga ega bo'lishi mumkin. Transport xizmatlarini etkazib beruvchilar tomonidan o'z agentlariga to'lanadigan to'lovlar alohida hisobga olinishi kerak. (*Xalqaro xizmatlar savdosi statistikasi bo'yicha qo'llanma*, 2010).

89. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish sohasida quyidagilar aks ettiriladi:

qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va h.k.) tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati;

oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymati.

90. Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlarining yalpi ishlab chiqarilishi joriy narxlarda ular qayta sotish uchun sotib olgan tovarlar uchun tushgan savdo ustamasining umumiy qiymati sifatida o'lchanadi. Savdo ustamasi – bu sotib olingan tovarlarni qayta sotish natijasida olingan haqiqiy yoki shartli hisoblangan narx va savdo korxonasi bir xil mahsulotni sotib olish uchun shu vaqtda to'lashi kerak bo'lgan, u sotilgan yoki boshqa yo'l bilan ishlatilgan narx (sotilgan tovarni o'rnini qoplash maqsadida) o'rtasidagi farq hisoblanadi. Ba'zi mahsulotlarning savdo ustamasi, agar ularning narxi pasaytirilgan bo'lsa, salbiy bo'lishi mumkin. Ular, shuningdek, zarar yoki o'g'irlik sababli hech qachon sotilmagan tovarlar uchun salbiy bo'lishi mumkin.

Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Agar chakana va ulgurji savdodan olingan yalpi daromadni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlash imkoni bo'lmasa, uni tashkilotning tovar aylanmasi umumiy hajmidagi tovar aylanmasi tarkibiga muvofiq taqsimlashga yo'l qo'yiladi.

Motorli transport vositalari va motosikllarga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xizmatlari qiymati xizmatlar ko'rsatishdan tushgan tushum miqdorida belgilanadi.

91. Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari, ushbu faoliyat tashkilotning asosiy faoliyati yoki yo'qligidan qat'iy nazar aks ettiriladi.

Uy-joy fondidan foydalanish va saqlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi – moliyalashtirish manbalaridan qat'i nazar uy-joy fondidan foydalanish, saqlash va joriy ta'mirlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning qiymati (yashash hududlaridan, masalan, umumiy yotoqxonalaridan foydalanganlik uchun to'lov summalarini ham qo'shgan holda).

92. Ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyatni amalga oshirishda ko'rsatilgan bozor xizmatlari, jumladan, masofaviy ta'lim va elektron shaklda sog'liqni saqlash xizmatlarini ko'rsatish qiymati aks ettiriladi.

93. Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

94. Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar uchta tarkibiy qismga bo'linadi:

qurilish loyihalarini ishlab chiqish bilan bog'liq operatsiyalarni o'z ichiga olgan muhandislik xizmatlari;

mashinalar, materiallar, asboblari, tuzilmalar, jarayonlar va tizimlarni loyihalash, ishlab chiqish va ulardan foydalanishni qamrab oladigan muhandislik xizmatlari. Ushbu turdagi xizmatlar muhandislik loyihalari bilan bog'liq loyihalar, rejalar va tadqiqotlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Bu xizmatlarga tog'-kon muhandisligi kirmaydi, uning o'rniga tog'-kon va neft va gaz qazib olish bilan bog'liq xizmatlar toifasiga kiradi;

tadqiqot ishlarini qamrab oladigan ilmiy va boshqa texnik xizmatlar; kartografiya; mahsulot sifatini tekshirish va sertifikatlash; shuningdek, texnik nazorat xizmatlari (xalqaro xizmatlar savdosi statistikasi bo'yicha qo'llanma, 2010).

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Bosh pudratchi tashkilot subpudratchi tomonidan bajarilgan va subpudrat shartnomasi bo'yicha qabul qilingan ilmiy-texnikaviy ishlarning qiymatini aks ettirmaydi.

95. Turizm agentliklari, turizm byurolari yoki bron xizmatlaridan olinadigan yalpi daromad uch xil bo'ladi:

a) to'g'ridan-to'g'ri tashrif buyuruvchilardan alohida hisob bo'yicha olingan daromad; ushbu amaliyot turizm byurosidan tashqari bron qilish xizmatlari orasida eng keng tarqalgan, ammo u turizm byurolarining o'zlari tomonidan tobora ko'proq foydalanilmoqda;

b) turizm agentlari bilvosita chakana savdo operatsiyalari (xizmat ko'rsatuvchi provayderlardan (masalan, aviakompaniyalar) yoki ulgurji sotuvchilardan mahsulot sotib olish va ushbu mahsulotni turistlarga sotish) orqali mukofot puli olganida chakana savdo xizmatlari uchun to'lanadigan yalpi tijorat ustamasi;

d) byurolar o'zlarining agentlari sifatida ish olib borganlarida, turistik xizmat ko'rsatuvchi provayderlar tomonidan to'lanadigan komissiyalar, xuddi chakana savdo xizmatlari uchun haq to'lash yoki shartnoma asosida qanday amalga oshirilganiga o'xshashdir. (Turizm statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar, 2008- yil)

96. Xizmatlarni subpudrat shartnomasiga o'tkazish.

Xizmatlarni subpudrat shartnomasiga o'tkazish xizmatlarni sotib olish va sotish o'rtasidagi davrda (masalan, biznes, transport yoki kompyuter xizmatlari sohasida) biron bir xizmatni sezilarli darajada o'zgartirmasdan sotib olish va sotishni o'z ichiga oladi. Masalan, mijozlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha yordamchi ofis funksiyalarini bajarish uchun yollangan ixtisoslashtirilgan xizmatlarni tashkil etuvchi kompaniya xizmatlarni boshqa pudratchiga subpudrat shartnomasi asosida topshirishi mumkin. Shunday qilib, subpudrat

shartnomasi ba'zi jihatlarida tovarlarni qayta sotishga o'xshaydi, chunki xizmatlar sotib olinadi va qayta sotiladi. Xizmatlar tashkilotchisi mamlakatiga nisbatan eksport qilinadigan va import qilinadigan xizmatlarning qiymati yalpi asosda hisobga olinadi. Ushbu tartib qo'llaniladi, chunki mazkur tashkilotchi xizmatlarni sotib oladi va sotadi; agar bunday tashkilotchi komissiya asosida agent sifatida harakat qilsa, u holda tashkilotchi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatning qiymati sifatida faqat uning komissiyasi hisobga olinadi. Ushbu xizmatlar xizmatlarni tasniflashning tegishli aniq toifasiga kiradi, masalan, transport, kompyuter yoki boshqa biznes xizmatlari (*Xalqaro xizmatlar savdosi statistikasi bo'yicha qo'llanma, 2010- yil*).

9- bob. Xalqaro tajribaga asosan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlari sektorining muqobil jamlanmasi

97. Bosh jamlanma va tanlanmani shakllantirish, birlamchi ma'lumotlarni yig'ish jarayonlarini tashkil etish va uni amalga oshirish, IV bosqich "Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish" doirasida amalga oshiriladi. GSBPM "Ma'lumotlarni qayta ishlash"ning V bosqichi doirasida esa ma'lumotlarni tasniflash va kodlash, yangi ma'lumotlarni shakllantirish, ularni umumlashtirish va qayta ishlashni yakunlash amalga oshiriladi.

98. Axborot iqtisodiyoti bilan bog'liq ma'lumotlarga, ya'ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) va mazmuni deb ataladigan talablarning tobora ortib borishi, axborot iqtisodiyoti bilan bog'liq kichik guruhlar va chegaralarni sharhlash bo'yicha ko'plab savollarni tug'diradi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) AKT sohalari va mazmuni ta'riflarini standartlashtirish bo'yicha yetakchi o'rinni egalladi. Axborot jamiyati ko'rsatkichlari bo'yicha ishchi guruh muqobil xizmat ko'rsatish sohasi yig'indisida keltirilgan qo'shimcha tafsilotlarni qo'llagan holda, ilgari ishlatilgan ta'riflarni ko'rib chiqdi va yangi tavsiyalar ishlab chiqdi.

99. AKT xizmatlari sektorining muqobil to'plami AKT xizmatlari sohasini har tomonlama qamrab olish va tahlil qilish, shuningdek, AKT xizmatlari statistikasining xalqaro taqqoslanishini ta'minlash uchun ishlatiladi.

100. Hali ham AKT xizmatlari uchun sun'iy yo'ldosh hisobvarag'ining xalqaro standartlari mavjud emasligi sababli, AKT xizmatlari sektorining muqobil yig'indisi ko'rsatkichlarini hisoblash tajriba asosida amalga oshiriladi.

101. AKT xizmatlarining muqobil to'plamini shakllantirish BMTning statistika bo'limi tomonidan ishlab chiqilgan barcha iqtisodiy faoliyatning Xalqaro standart sanoat tasnifida (keyingi o'rinlarda – XSST-4) "AKT sohasi"

ta'rifiga muvofiq amalga oshiriladi va "O'zstandart" agentligining 28.01.2011- yildagi 05-268- sonli qarori bilan tasdiqlangan Iqtisodiy faoliyat milliy tasniflagichi 2- tahrir (IFUT-2) bilan taqqoslanadi hamda "Statistical classification of economic activities in the European Community" – NACE Rev.2. xalqaro standartga asoslanadi.

102. AKT xizmatlari sohasining muqobil yig'indisi hajmi xizmatlarning ayrim turlari bo'yicha tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyati (MST) tomonidan tasdiqlangan mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichiga muvofiq shakllantiriladi. va "O'zstandart" agentligining 2015- yil 19- yanvardagi 05-612- sonli qarori bilan kuchga kirgan, to'rt raqamli darajadagi IFUT-2 bilan o'zaro bog'langan va "Statistical classification of products by activity in the European Economic Community" – CPA 2008. tasniflagichlarni taqqoslash jadvali uslubiy nizomning 8- ilovasida keltirilgan.

103. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan kontent va media sohasida xizmatlar hajmi shakllanmoqda. Ushbu sektor uchun ko'rsatkichlar XSST-4 da keltirilgan tavsiflarga muvofiq tuziladi.

104. Tarkib va media sektorining muqobil yig'indisi hajmi MST bo'yicha IFUT uchun moslashtirilgan xizmatlarning alohida turlari hajmidan shakllanadi, bu esa o'z navbatida XSST-4 bilan taqqoslanadi. Tasniflagichlarni taqqoslash jadvali uslubiy Nizomning 8- ilovasida keltirilgan.

105. AKT xizmatlarining muqobil to'plami, shuningdek, kontent va ommaviy axborot vositalari har chorakda quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) tegishli davr uchun yirik tijorat korxonalari bo'yicha statistika hisoboti;
- b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari hamda kichik korxonalar va mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari asosida faoliyati tugatilgan korxonalar bo'yicha hisoblangan hajmlarni hisobga olgan holda baholash;

- d) notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobotlari ma'lumotlariga asosan baholash;

- e) 4 xizmat (jsh) "Bozor xizmatlarini ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar uchun so'rovnomalar" tanlama kuzatuvlar ma'lumotlari natijalari bo'yicha jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini baholash (agar ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlar soni qisqartirilsa yoki nomi o'zgartirilsa, ular ushbu statistika hisobotlari va kuzatuvlari asosida shakllantiriladi)

106. Jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini baholashda, qonun hujjatlariga muvofiq AKT xizmatlari sohasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi ro'yxatga olingan jismoniy shaxslar soni (ya'ni, tegishli ruxsatnoma hujjatlariga ega bo'lgan) to'g'risidagi soliq organlari va IT-parklardan olingan ma'lumotlar, shuningdek, "One Million Uzbek Coders" ("Bir million dasturchilar") loyihasi monitoringi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

10- bob. Rasmiy statistika ma'lumotlarini tarqatish

102. Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish tizimlarini yangilash, tarqatish uchun rasmiy statistika ma'lumotlarini tayyorlash, uni tarqatish jarayonlarini boshqarish GSBPM "ma'lumotlarni qayta ishlash" VII bosqichi doirasida shakllantiriladi.

103. Har yili tasdiqlanadigan statistika dasturiga muvofiq xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi shakllarda tarqatiladi va shakllantiriladi:

yillik statistika to'plamlari:

"O'zbekiston hududlari statistikasi yilnomasi", nashr etish muddati – avgust.

"O'zbekiston raqamlarda", nashr etish muddati – sentabr;

"O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi", nashr etish muddati – sentabr;

"O'zbekistonda kichik tadbirkorlik", nashr etish muddati – oktabr;

"O'zbekistonda axborot jamiyati rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari", nashr sanasi – oktabr;

"Transport va aloqa", nashr etish muddati – oktabr;

"O'zbekistonda sog'liqni saqlash", nashr qilish muddati ikki yilda bir marta – noyabr;

"O'zbekiston Respublikasining statistikasi yilnomasi", nashr qilish muddati ikki yilda bir marta – dekabr;

statistik byulletenlar:

oylik: "Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar", e'lon qilingan sana – hisobot davridan keyingi har oyning 17- kuni;

yillik: "Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatiladigan bozor xizmatlari", nashr qilish muddati – may;

Shuningdek, ma'lumotlar Statistika agentligining rasmiy veb-saytida jadval shaklida dinamik qatorlar shaklida taqdim etiladi (<https://stat.uz/ru/>).

Shu bilan birga, xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar rasmiy statistika foydalanuvchilariga yuridik va jismoniy shaxslarning yozma murojaatlari asosida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi tizimidagi jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq taqdim etiladi.

109. Operatsion ma'lumotlar (oylik va choraklik) nashr etilganda, tegishli davrning oldingi yillari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqiladi. Yangilangan ma'lumotlarni nashr etishda yillik hisobot asosida yakuniy natijalar qo'llaniladi.

110. Ilgari nashr etilgan ma'lumotlar aniqlangan taqdirda, keyingi nashrlarda aniqlangan ma'lumotlar keltirilgan. Qayta ko'rib chiqilgan (yakuniy) ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi nashrlari orqali tarqatiladi.

11- bob. Yakuniy qoidalar

111. Ushbu uslubiy qoidalarni ishlab chiqish jarayonida O'zbekiston Respublikasining xizmatlar va elektron tijorat sohasidagi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro statistika tashkilotlari, MDH Davlat qo'mitasi tavsiyalari va milliy hisoblar tizimini belgilashdan foydalanildi.

112. Ushbu uslubiy qoidalar statistika organlari tomonidan xizmat ko'rsatish sohasining asosiy turlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi mintaqalari, shaharlari va tumanlari kesimida xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni shakllantirishda foydalanish uchun mo'ljallangan.

113. Amaldagi uslubiy nizom asosida hisoblangan asosiy ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlardan statistik maqsadlarda respublika hududlarida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishidagi mavjud vaziyatni aniqlashda axborot manbai sifatida foydalanish mumkin.

114. Xizmat ko'rsatish sohasi ko'rsatkichlari bo'yicha olingan ma'lumotlar sud-huquqiy nizolarni hal qilish, davlat xaridlarini amalga oshirish, savdo bitimlari to'g'risida qarorlar qabul qilish va boshqa maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallanmagan.

115. Nashrlar va rasmiy xabarlarida xizmat ko'rsatish sohasining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlar butun raqamdan so'ng verguldan keyin bitta o'nlik belgi bilan joylashtiriladi.

116. Ushbu uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy etish bosqichlari “statistika ma’lumotlarining namunaviy modeli” (GSIM – Generic Statistical Information Model) talablari asosida ishlab chiqilgan “statistika sohasidagi kuzatuv tasniflari, metodologiyalari va shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo’yicha namunaviy uslubiy qo’llanma”ga muvofiq amalga oshiriladi.

12. Xorijiy va mahalliy mutaxassislarning tavsiyalari

117. Foydalanuvchilarning statistika ma’lumotlariga bo’lgan ehtiyojlarini aniqlash, foydalanuvchilar bilan maslahatlashish va ehtiyojlarni tasdiqlash, statistika ma’lumotlarini shakllantirish maqsadlarini belgilash “statistika ma’lumotlariga bo’lgan ehtiyojni o’rganish” I bosqichi doirasida amalga oshiriladi va ishlab chiqarish siklini baholash uchun ma’lumotlar yig’ish, ishlab chiqarish tsiklini baholash, GSBPM “ishlab chiqarish siklini baholash” VIII bosqichi doirasida kelajakdagi harakatlar rejasini aniqlash.

118. Ushbu uslubiy nizomni ishlab chiqishda Rossiya Federatsiyasi, Belorusiya, Qozog‘iston va Qirg‘iziston Respublikalarining tajribalari va materiallaridan foydalanildi.

119. Ushbu uslubiy nizomda xizmat ko’rsatish sohasi statistikasini shakllantirish bo’yicha qo’llaniladigan tushunchalar, ko’rsatkichlar va uslubiy yondashuvlarning ta’riflari xalqaro standartlarga mos keladi. “Xalqaro tajribaga asoslangan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) xizmatlarining muqobil to’plami” bo’limi mazkur uslubiy nizomga mustaqil bo’lim sifatida kiritilganini alohida ta’kidlash kerak. Ushbu bo’lim axborot iqtisodiyotining rivojlanishi bilan bog‘liq statistik ma’lumotlarga talabning oshishi va AKT xizmatlari sohasini har tomonlama qamrab olish hamda tahlil qilishni ta’minlash zarurati, shuningdek, AKT xizmatlari statistikasining xalqaro taqqoslanishi, jumladan, MDHda katta ahamiyatga ega. Ko’rib chiqilayotgan hujjatda qo’llaniladigan AKT xizmatlarining muqobil to’plamini shakllantirishdagi yondashuvlar barcha iqtisodiy sanoat faoliyatining xalqaro standart tasnifida AKT sektorining ta’rifiga to’liq mos kelib (XSST-4, ISIC, Rev.4), bu to’plangan ma’lumotlarning xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlaydi (Mustaqil Davlatlar Hamdo’stligi Davlatlararo statistika qo’mitasining 2021- yil 23- avgustdagi №4-VS/1-88- sonli xati).

120. Xalqaro standartlarga asoslangan buxgalteriya hisobi metodologiyasini takomillashtirish uchun qisqa muddatli ma’lumotlarning sifatini, shu jumladan ularni diskret davrlarga taqsimlash, biznes reyestridan

namuna olish, kuzatuv shakllari va namuna olish usullarini takomillashtirish muhimdir (*XVJ eksperti tavsiyalari*).

121. Umuman olganda mazkur uslubiy Nizom, barcha iqtisodiy sanoat faoliyatining xalqaro standart tasnifi (XSST-4, ISIC, Rev.4), Yevropa Ittifoqidagi iqtisodiy faoliyat tasnifi (KDYeS red.2, NACE Rev.2), Milliy hisoblar tizimi (MXT 2008) talablariga mos keladi hamda xizmat ko'rsatish sohasini statistik kuzatishda statistika organlarining mehnat faoliyati davomida foydalanish mumkin (*Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlatlararo statistika qo'mitasining 2021-yil 23-avgustdagi №4-VS/1-88-son xati*).

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2012-yil 2-maydagi O'RQ-328-son "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri) // <https://lex.uz>
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 1-noyabrdagi O'RQ-578-son "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida" Qonuni // (<https://lex.uz/>).
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi // <https://lex.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 1-maydagi "Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni reyting baholash tizimini joriy etish to'g'risida"gi PQ-4702-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020-yil 2-may. // <https://lex.uz/>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4742-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020-yil 9-iyun. // <https://lex.uz/>
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 16-iyundagi "Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4752-son qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 2020-yil 16-iyun. // <https://lex.uz/>
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 1-iyuldagi "Yakka tartibdagi tadbirkorlar shug'ullanishi mumkin bo'lgan faoliyat turlari ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 6-son qarori. // <https://lex.uz/>
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-noyabrdagi "Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yollangan xodimlarni davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yish hamda soliq solinadigan daromadlar va chegiriladigan xarajatlar hisobini yuritishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 707-son qaroriga 3-ilova. // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi // <https://lex.uz/>
9. "O'zstandart" agentligining 2011-yil 28-yanvardagi 05-268-son qarori bilan tasdiqlangan va kuchga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari milliy klassifikatori, 2-nashr (IFUT-2), Toshkent sh., 2011-yil. // <https://stat.uz/ru/uslugi-1/statisticheskie-klassifikatory>.
10. "O'zstandart" agentligining 2015-yil 19-yanvardagi 05-612-son qarori bilan tasdiqlangan va kuchga kiritilgan O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi, Toshkent sh., 2015-yil. // <https://stat.uz/ru/uslugi-1/statisticheskie-klassifikatory>.

11. Mahsulotlarning (tovarlar va xizmatlarning) model statistik tasniflagichiga tushuntirishlar (MST-2), MDH statistika qo‘mitasi, M., 2013- y.
12. Milliy hisoblar tizimi 2008/KYeS, HVJ, IHRT, BMT, JB/Nyu-York 2009- y. // (<https://unstats.un.org/unsd/nationalaccount/>)
13. Xalqaro xizmatlar savdosi statistikasi bo‘yicha qo‘llanma, 2010 / BMT / Nyu–York, 2009 // <https://unstats.un.org/>
14. Xizmatlar sohasi uchun ishlab chiqaruvchilar narx indeksini tayyorlash bo‘yicha uslubiy qo‘llanma, Yevrostat-IHRT, 2014- y. // <https://unece.org>.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 27-maydagi “Yalpi ichki mahsulotni ishlab chiqarish usulidan foydalangan holda hisoblashning uslubiy nizomlarini tasdiqlash haqida”gi 116-son buyrug‘i. // <https://lib.stat.uz/ru>.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 29-apreldagi 64-sonli “Kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatida tanlanma tadqiqotni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha uslubiy nizomlar” buyrug‘i. // <https://lib.stat.uz/ru>.
17. Axborot iqtisodiyoti statistikasini ishlab chiqarish bo‘yicha qo‘llanma – 2009- y. (qayta ko‘rib chiqilgan nashr). // BMT (<https://unctad.org>), Nyu-York va Jeneva, 2014- y. // <https://unctad.org>.
18. Barcha iqtisodiy faoliyatning xalqaro standart sanoat tasnifi (to‘rtinchi qayta ko‘rib chiqish). // BMT (<https://unstats.un.org>), Nyu–York, 2009- y.
19. Xizmat turlari kontekstida aholiga pullik xizmatlar ko‘rsatish hajmi bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlarni shakllantirishning rasmiy statistik metodologiyasi. Rosstat. 2017- y. // <https://gks.ru/>.
20. Aholiga pullik xizmat ko‘rsatish statistikasi bo‘yicha uslubiy nizom. Belstat. 2017- y. // <https://www.belstat.gov.by/>
21. Tijorat xizmatlari statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish metodikasi. Kazstat. 2016- y. // <https://stat.gov.kz/>
22. Xizmatlar statistikasi bo‘yicha uslubiy reglament. Qirg‘iziston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 2011- yil // <http://www.stat.kg/>.

Ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmi to'g'risida ma'lumotlar shakllantirish sxemasi

Bosqichlar	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
I bosqich	Statistika ma'lumotlariga bo'lgan ehtiyojlarni o'rganish	Xizmat sohasi statistikasi bo'yicha rasmiy statistika ma'lumotlarining asosiy axborot manbai hisoblangan statistika kuzatuvi shakllari va boshqa ma'muriy manbalarni belgilash, kelishish va tasdiqlash.	Yiliga bir marta	Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi, xizmatlar sohasi statistikasining hududiy bo'limlari, statistika agentligining tegishli boshqarmalari, tegishli vazirlik va idoralar
II bosqich	Ishlab chiqish jarayonlarini rejalashtirish	Rasmiy statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan jarayonlarni rejalashtirish, asosiy ma'lumotlarni yig'ishdan tortib, xizmatlar sohasidagi rasmiy statistika ma'lumotlarini tarqatishgacha bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu ma'lum bir ishlab chiqish jarayonida mavjud tizimlar va texnologiyalardan muntazam foydalanishni, kamchiliklarni aniqlashda yangi qarorlar qabul qilish imkoniyatining mavjudligini hisobga oladi. Xodimlarning ishlab chiqish tizimlari bilan ishlash tahlil qilinib, mas'ul ijrochilarni belgilab qo'yish.	Yiliga bir marta	Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi, xizmatlar sohasi statistikasi hududiy bo'limlari
III bosqich	Ishlab chiqish jarayonlarini shakllantirish	Xizmatlar sohasi statistikasi ma'lumotlarini ishlab chiqishni tashkil etish bo'yicha mavjud va qabul qilingan qarorlarni shakllantirish va sinovdan o'tkazish bo'yicha tadbirlar o'tkazish. Mavjud tizim va	Yil davomida	Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi, xizmatlar sohasi statistikasi hududiy bo'limlari, statistika

Bosqichlar	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
		jarayonlardagi aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, xizmatlar sohasidagi rasmiy statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish tizimining birlamchi ma'lumotlarni to'plash, ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilish, rasmiy statistika ma'lumotlarini tarqatish uchun tayyorligini ta'minlash uchun kelajakda bo'shliqlarni to'ldirish va ulardan qayta foydalanish uchun yangi tizimlar, jarayonlar va xizmatlarni takomillashtirish yoki yaratish.		agentligining tegishli boshqarmalari
IV bosqich	Birlamchi ma'lumotlarni yig'ish	“Bosh jamlanma va tanlanmani rejalashtirish”ga muvofiq xizmatlar sohasi statistikasi bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish jarayonlarini tashkil etish va o'tkazish uchun umumiy bosh jamlanma va tanlanmani shakllantirish. Birlamchi ma'lumotlarni yig'ishni tashkil etish (ma'lumotlarni yig'ish strategiyasini tayyorlash, ma'lumotlarni yig'ishni amalga oshiruvchi xodimlarni o'qitish, ma'lumotlarni yig'ish uchun zarur vositalarning mavjud bo'lishini ta'minlash, ma'lumotlarni so'rash va olish uchun zarur tizimlarni but qilib qo'yish, yig'iladigan ma'lumotlarning himoyalaniishini ta'minlash, ma'lumotlarni yig'ish vositalarini tayyorlash, respondentlarni xabardor qilish, ular bilan ishlash, materiallarni kerakli tillarga tarjima qilish). Respondentlardan birlamchi ma'lumotlarni elektron shaklda olish orqali ma'lumotlarni yig'ish, kuzatuvni o'tkazuvchi mutaxassislar tomonidan, shu jumladan “Statistika” integratsiyalashgan axborot tizimi	Statistika dasturi tomonidan belgilangan muddatlarga muvofiq	Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi, xizmatlar sohasi statistikasi hududiy bo'limlari

Bosqichlar	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
		va “Elektron hukumat” tizimining idoralararo integratsiya platformasi oʻrtasida elektron maʼlumotlar almashinuvi orqali respondentlarning soʻrovlarini oʻtkazish tashkil etiladi. Axborot tizimlariga va maxsus dasturlarga birlamchi maʼlumotlarni kiritish, toʻgʻridan-toʻgʻri kuzatuv joyida mobil qurilmalar (planshetlar) yordamida mutaxassislar tomonidan birlamchi maʼlumotlarni kiritish, respondentlar tomonidan maʼlumotlarning taqdim etilishi hisobini yuritish ishlarini amalga oshirish.		
V bosqich	Maʼlumotlarni qayta ishlash	Kiruvchi birlamchi maʼlumotlarni birlashtirish, tasniflash, tekshirish, xatolardan tozalash va ularni tahlil qilish, rasmiy statistik maʼlumotlar sifatida tarqatish uchun zarur boʻlgan jamlanma va boshqa maʼlumotlarni shakllantirish.	Statistika dasturi tomonidan belgilangan muddatlarga muvofiq	Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi, xizmatlar sohasi statistikasi hududiy boʻlimlari
VI bosqich	Maʼlumotlarni tahlil qilish	Maʼlumotlarning koʻzlangan maqsadlarga muvofiqligini tekshirish, maʼlumotlarning qaysi daraja (kesim)da eʼlon qilinishini belgilash, yordamchi axborotlar (izohlar, sharhlar, texnik eslatmalar, axborot maʼlumotnomalar va boshqa zarur metamaʼlumotlar), yordamchi ichki hujjatlarni tayyorlash, tegishli tarmoq mutaxassislari bilan oldingi eʼlon qilingan maʼlumotlar muhokamasini oʻtkazish, boshqa tillarda tarqatiladigan statistik materiallarni tarjima qilish, eʼlon qilish (tarqatish) uchun statistik material (toʻplam, jadval, press-reviz va	Yil davomida	Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi, xizmatlar sohasi statistikasi hududiy boʻlimlari


Bosqichlar	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
		b.)larning yakuniy mazmuni (kontenti)ni ma'qullash.		
VII bosqich	Rasmiy statistika ma'lumotlarini tarqatish	Foydalanuvchilarga tarqatiladigan xizmatlar sohasidagi rasmiy statistika ma'lumotlarini jamlash, rasmiylashtirish, ma'lumotlar bazasiga va axborot tizimlariga yuklash, bosma shakllarda chop etish, targ'ibot qilish, turli vositalar (rasmiy veb-saytlar, ommaviy axborot vositalari) orqali e'lon qilish hamda tarqatish, xizmatlar sohasi statistikasi bo'yicha statistika ma'lumotlarini bosma nashrlar, press-revizlar, axborot byulletenlari, jadvallar, interaktiv grafikalar, kartogrammalar, ommaviy ochiq ma'lumotlar to'plamlari, yuklab olinadigan fayllar, videolar, rasmiy veb-saytlardagi ma'lumotlar. Statistik materialning tarkibiy qismlarini (statistik nashrning namuna shakli, izohlar, jadvallar, grafikalar va boshqalarni to'ldirish) tayyorlash, tarkibiy qismlarni tayyor mahsulot shakliga (barcha ma'lumotlarni birlashtirish, yakuniy statistik nashr ko'rinishida jamlash) keltirish, yakuniy statistik materialni ko'rib chiqish, kelishish, tahrirlash, xatolarning yo'qligi va e'lon qilish mezonlariga muvofiqligini tekshirish, statistik materialni ishlab chiqish (nashr qilish, tarqatish vositalariga joylashtirish uchun tayyorlash). Foydalanuvchilarning muayyan guruhlar, masalan ommaviy axborot vositalari yoki tegishli manfaatdor shaxslar uchun matbuot anjumanlari, brifinglar o'tkazish, shuningdek,	Statistika dasturi tomonidan belgilangan muddatlarga muvofiq	Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi, xizmatlar sohasi statistikasining hududiy bo'limlari, statistika agentligining tegishli boshqarmalari, tegishli vazirlik va idoralar

Bosqichlar	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
		rasmiy statistika ma'lumotlari e'lon qilingunga qadar ularni oshkor qilishni taqiqlash, tasdiqlangan ro'yxatlarga asosan foydalanuvchilarga rasmiy statistika ma'lumotlarini (qog'oz va elektron shaklda) yetkazib berish, ochiq statistika ma'lumotlarini rasmiy statistikani tayyorlovchilarning veb-saytlarida e'lon qilish, statistika ma'lumotlarini ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish, rasmiy statistikani tayyorlovchilarning veb-saytlarida mavjud ochiq ma'lumotlar bazasidan "on-line" rejimida foydalanish uchun foydalanuvchilarga imkoniyat yaratish, foydalanuvchilarning so'rovlari asosida ikki tomonlama imzolangan kelishuv va shartnomalarga muvofiq rasmiy statistika ma'lumotlarini taqdim etish, xalqaro darajada statistika ma'lumotlarini ayirboshlash, salohiyatli foydalanuvchilar bilan yanada maqsadli ishlar olib borish uchun ular bilan aloqalarni o'rnatishning turli vositalarini qo'llash, shuningdek, foydalanuvchilarni statistik ma'lumotlar to'g'risida xabardor qilish jarayonlarini yengillashtirish uchun veb-saytlar, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar, elektron jo'natmalar va boshqalardan foydalanish.		
VIII bosqich	Ishlab chiqish siklini baholash	Foydalanuvchilarning izohlari va takliflari, jarayonlar bo'yicha metama'lumotlar, tizimlarning o'lchov (metrik) ma'lumotlari, shuningdek, xodimlarning takliflarini shakllantirish va yig'ish, avvalgi ishlab chiqish	Statistika dasturi tomonidan belgilangan muddatlarga muvofiq	Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi, xizmatlar sohasi statistikasining hududiy bo'limlari, statistika

Bosqichlar	Chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi	Muddati	Mas'ul ijrochilar
		davrini baholash natijasi bo'yicha kelgusi davr uchun kelishilgan harakatlar rejasida belgilangan ishlarning bajarilishi holati to'g'risidagi hisobotlar. Ishlab chiqish siklini baholash uchun ma'lumot yig'ish jarayoni, statistika ma'lumotlarining sifatini baholash, respondentlarga yuklamalarni monitoring qilish, foydalanuvchilarning rasmiy statistika ma'lumotlaridan qoniqish darajasi va ularga bo'lgan ishonchini baholash, xodimlarning ishlab chiqish bosqichlari va jarayonlaridan qoniqish holatini monitoring qilish uchun ma'lumotlarni yig'ish, o'tkazilgan baholashlar va monitoringlar natijalari to'g'risidagi yakuniy ma'lumotlarni tahlil qilish, foydalanuvchilar va respondentlarning fikrlari hamda takliflarini hisobga olgan holda statistika faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha takliflar tayyorlash, tahlillar va takliflar asosida kelgusi harakatlar rejasini ishlab chiqiladi, manfaatdor tomonlar bilan kelishish va tasdiqlash.		agentligining tegishli boshqarmalari, tegishli vazirlik va idoralar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarini statistik
hisobi bo'yicha uslubiy nizomga
2- ILOVA

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi tarkibida ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy
hajmi to'g'risida ma'lumot shakllantirish sxemasi**



**Kichik biznes va mikrofirmalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini aniqlash uchun tuzatish
koeffitsiyentini hisoblashning shartli namunasi**

	Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar hajmining avvalgi chorakka nisbatan o'zgarishi				Joriy yilning oldingi choragi uchun 4 kb savolnoma bo'yicha xizmat ko'rsatgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni		Kelgusi uch oyda o'z faoliyatini yaxshilash istiqboli bo'lgan kichik biznes va mikrofirmalarning ulushi	Tuzatish koeffitsiyenti
	(N) y.	(N-1) y.	(N-2) y.	Xizmatlar hajmi o'zgarishining o'rtacha geometrik qiymati	jami	shu jumladan kelgusi uch oy davomida o'z faoliyatini takomillashtirish istiqbollari bo'lganlar		
Jami	115,3	114,1	113,5	114,3	6037	5937	$0,98 = 5937 : 6037$	$1,12 = 114,3 : 100 \times 0,98$

**Tugatilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan har chorakda
ko'rsatiladigan xizmatlar hajmini hisoblash shartli namunasi**

Shartli namuna

	Haqiqiy narxlarda xizmatlar hajmi, mlrd so'm
V_{lpr} – bazis yil davomida tugatilgan kichik biznes subyektlari xizmatlari hajmi	328,5
V_{mpr} – kichik biznes subyektlari tomonidan bazis yil uchun umumiy xizmatlar hajmi	14 470,4
V_{mn} – 4 kb savolnoma tanlanma kuzatuv ma'lumotlari muvofiq, umumiy jamlamaga taqsimlangan n chorak uchun ma'lumotlar	2 320,8
V_{ln} – hisobot yilining n choragida tugatilgan kichik korxonalar xizmatlar hajmi	$52,7 = 328,5 / 14\,470,4 \times 2\,320,8$

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik
hisobi bo'yicha uslubiy nizomga
5- ILOVA

**Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlarning choraklik hajmini hisoblashning shartli namunasi**

mln. so'm

	Bazis yil uchun kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, % da	Kichik korxona va mikrofirmalar to'g'risidagi ma'lumot, (4 kb savolnoma shakli)		Joriy yilning hisobot choragi uchun to'g'rilash koeffitsiyentini hisobga olgan holda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning jami hajmi
		kichik korxona va mikrofirmalarning to'plami bo'yicha xizmatlar hajmi	to'g'rilash koeffitsiyenti	
A	1	2	3	5
Jami – xizmatlar	100,0	2 305 828,1	1,12	2 582 527,47
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	8,0			207 667,4
Moliyaviy xizmatlar	2,3			58 193,5
Transport xizmatlari	11,5			297 265,3
shu jumladan, avtotransport xizmatlari	7,1			184 092,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11,1			285 940,7
Savdo xizmatlari	41,1			1 061 031,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	5,2			133 121,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1,7			44 079,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	4,2			107 510,2
Ijara va prokat xizmatlari	1,5			37 741,5
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	0,7			17 620,7
Shaxsiy xizmatlar	0,4			11 424,0

	Bazis yil uchun kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi, % da	Kichik korxona va mikrofirmalar to'g'risidagi ma'lumot, (4 kb savolnoma shakli)		Joriy yilning hisobot choragi uchun to'g'rilash koeffitsiyentini hisobga olgan holda kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning jami hajmi
		kichik korxona va mikrofirmalarning to'plami bo'yicha xizmatlar hajmi	to'g'rilash koeffitsiyenti	
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	3,2			81 908,2
Boshqa xizmatlar	9,3			239 024,0

**Xizmat ko'rsatayotgan jismoniy shaxslar sonini
hisoblashning shartli namunasi (tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra)**
kishi

Xizmat turi nomi	Ro'yxatdan o'tgan jismoniy shaxslar soni, L_i	Kuzatuv o'tkazilgan jismoniy shaxslar soni			Ruxsatnomaga ega bo'lganlarni jami kuzatilganlar-dagi ulushi % da, W_i	Jismoniy shaxslarning hisoblangan soni	
		Jami	Ro'yxatdan o'tganlar	Ro'yxatdan o'tmaganlar		Jami, L_f	shu jumladan, ro'yxatdan o'tmaganlar, L_{in}
A	1	2	3	4	5	6	7
	16573	7356	4821	2535	$65,5 = 4821/7356 \cdot 100$	$25302 = 16573/65,5 \cdot 100$	$8729 = 25302 - 16573$

Jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini hisoblashning shartli namunasi

Xizmat turi nomi	Kuzatuv ma'lumotlariga asosan o'rtacha bir oylik xizmatlar hajmi, ming so'mda	shu jumladan		Kuzatuv ma'lumotlariga asosan 1 kishiga to'g'ri keluvchi o'rtacha bir oylik xizmatlar hajmi, ming so'mda	shu jumladan		Kuzatuv ma'lumotlariga asosan jismoniy shaxslar tomonidan bir oylik xizmatlar hajmini baholash, ming so'mda	shu jumladan	
		Ro'yxatdan o'tganlar	Ro'yxatdan o'tmaganlar		Ro'yxatdan o'tganlar, V_i	Ro'yxatdan o'tmaganlar, V_{io}		Ro'yxatdan o'tganlar, $V_{xi} = V_{xi} \times L_i$	Ro'yxatdan o'tmaganlar, $V_{in} = V_{xin} \times L_{in}$
A	1	2	3	4	5	6	7	8	9
	10181434,3	8190719,4	1990714,9	$1384,099 = 10181434,3 / 7356$	$1698,967 = 8190719,4 / 4821$	$785,292 = 1990714,9 / 2535$	$35011794,0 = 28156980,1 + 6854813,9$	$28156980,1 = 1698,967 \cdot 16573$	$6854813,9 = 785,292 \cdot 8729$

Xizmat ko'rsatuvchi jismoniy shaxslar sonining minimal namunaviy hajmini amaliy hisoblash uchun ushbu ko'rsatkichlarning parametrlaridan quyidagi o'lchamlarda foydalanish mumkin:

DELTA – bu 2 dan 5 ballgacha bo'lgan namunaning vakillik ruxsat etilgan maksimal xatosi. Taxminiy hisob - kitobda *DELTA* 2,3 deb qabul qilinadi;

$t - F(t)$ belgilangan ehtimollik chegaralariga qarab, namunaning vakillikdagi xatoning ko'pligi. Amaliy hisob – kitoblar uchun $F(t)$ miqdorida ishlatilib, 0,95 (95%), bu 1,96 ga teng t qiymatiga to'g'ri keladi (ya'ni, namuna vakillikdagi deyarli ikki barobar xato);

$w (1 - w)$ – taqsimotning o'zgaruvchanlik darajasi, bu yerda w – namunadagi o'rganilayotgan belgining taqsimlanishining namunaviy ulushi. Tadqiqot boshlanishidan oldin w qiymati noma'lum bo'lganligi sababli, uni 0,5 miqdorida olish mumkin, bu xususiyatning tarqalishining o'zgaruvchanlik darajasining mumkin bo'lgan maksimal qiymatini olish imkonini beradi [0,25 = 0,5 (1 - 0,5)] va shuning uchun namuna hajmining eng katta qiymati, qolgan hamma narsa teng.

$$P_n = \frac{t(1,96) \times w \times (1 - w)}{DELTA} \times N_i = \frac{1,96 \times 0,5(1 - 0,5)}{2,3} \times 44\,980 =$$

$$= 9\,582 \text{ kishi, yoki } 21,3 \% \left(\frac{9\,582 \times 100}{44\,980} \right).$$

**Xizmatlar hajmi indekslarini joriy va taqqoslama narxlarda aniqlashning
shartli namunasi**

Ko'rsatkichlar nomi	Hisob
V_{op} – hisobot davrida xizmatlar hajmi, mlrd so'm	23936,7
V_{bp} – bazis davrida xizmatlar hajmi, mlrd so'm	20417,5
I_{vt} – joriy narxlarda xizmatlar qiymat hajmi indeksi	$117,2 = \frac{23936,7}{20417,5} * 100$
I – deflyator	104,4
V_{os} – hisobot davridagi xizmatlarning taqqoslama narxlardagi hajmi	$22927,9 = \frac{23936,7}{4,4} * 100$
